

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

142-TARIX guruh talabasi Yusupova Gulrux Shuhratovnaning
5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “Xiva xonligida zargarlik san’atining rivojlanishi tarixidan”

Bajardi:

Yusupova Gulrux

Ilmiy rahbar:

t.f.n. dots. Matyoqubova M.



URGANCH-2018.

Mundarija:

Kirish.....	3
--------------------	----------

I. Bob. Xiva xonligida zargarlik san'ati tarixi

1.1 Xiva xonligida hunarmandchilik turlari.....	10
1.2 Xorazm zargarlik tarixi va zargarlik ashyolari.....	26

II. Bob. Xiva xonligida zargarlik sinoati va sanoati

2.1 Xiva xonligidagi zargarlar va zargarlik ustaxonalari faoliyati.....	42
2.2 Xonlikdagi zargarlik buyumlarining turlari.....	57
2.3 Zargarlik buyumlarining o'ziga xos jihatlari va hududiy farqlari.....	70

Xulosa.....	83
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	86
--	-----------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi XX asr o'zbek xalqi tarixida ro'y bergan eng muhim voqelik, shubhasiz, davlat mustaqilligiga erishish bo'ldi. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z taqdiri va kelajagini o'zi yaratadigan bo'ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog'liq qator islohotlar o'tkazildi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 – yil 27-iyuldagi "O'z FA Tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish haqidagi" qaroridan so'ng haqqoniy tarixni yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiy e'tibor berish, qo'yilgan muammolarni soha mutaxassislari tomonidan hal etilishi, mavjud muammolar yechimini ilmiy asoslash borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1998 – yilda bir guruh tarixchi – olimlar bilan qilgan suhbatida tarixchi-olimlarimiz oldiga bir qator ilmiy-nazariy va amaliy dolzarb muammolarni hal etish vazifasini qo'ygan edi. Bu uchrashuvdan keyin tarixchi – olimlarning mas'uliyatlari yanada oshdi. Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boy ma'naviy me'rosi, o'ziga xos milliy an'alari tizimi alohida o'rin tutadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida "Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilazatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani, Avestodek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq. Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlovonlarni ko'p ko'rgan" Xorazm tarixiga bo'lgan bugungi kundagi munosabatni yaqqol ko'rsatib bergan. Shu munosabat bilan Xorazm davlatchiligining muhim bo'lagi, uning ma'naviy va madaniy hayotini, qadimgi

davrdan to hozirgi kungacha rivojlanib kelayotgan Xorazm xalqining o'lmas, o'ziga xos bo'lgan xalq hunarmandchiligi turlari va uning xalq amaliy san'ati me'rosini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida mustaqil davlatchilik asoslarini yaratish uchun ko'p kuch sarflangan va sa'y-harakatlar qilingan. "Ayniqsa, Xorazmning shonli tarixi bizda o'tmish merosimiz bilan xaqli ravishda faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi,— degandi Prezident I.A.Karimov. "Chunki Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligi tarixining uzviy qismidir, uning qudrati va qadimiyligi timsolidir. Ana shu bebaho meros bugungi avlod zimmasiga buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lishdek ulkan mas'uliyat ham yuklaydi". "Xiva xonligida zargarlik san'atining rivojlanishi tarixidan" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni boshlar ekanman, bu mavzu bugun tarix fani va mustaqil O'zbekistonimizning ma'naviy salohiyati uchun naqadar dolzarb ekanligini angladim. Zero, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelgan xalq amaliy san'ati bo'lmish hunarmandchilik turlarini o'rganib, qadimgi davrdan boshlab to hozirgi kunga qadar rivojlanib kelayotgan xalq hunarmandchiligi buyumlarini, asosan Xorazm Xiva xonligida rivoj topgan xalq amaliy san'ati bo'lmish zargarlik san'ati tarixini chuqur o'rganib, madaniy merosimiz haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib uni qanchalar muhim soha ekanligini ochib berishga harakat qilaman. O'zbek davlatchiligi tarixida Xiva xonligining ham mustahkam o'rni bor. O'zbekiston davlat xujjatlarini o'zbek tilida olib borgan mazkur davlat tarixining siyosiy jihatlarini (aspektini) o'rganish o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishdagi muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu asos Bitiruv malakaviy ishning nazariy, ilmiy, siyosiy ahamiyati borligini ko'rsatishi bilan bir qatorda mavzuning o'ta dolzarb ekanligini ham tasdiqlaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorazm vohasining shahri bo'lmish Xiva shahri qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Xorazmning siyosiy tarixi haqida ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, lekin ularda xalq amaliy san'ati namunalari haqida ma'lumotlar kam. Ularda faqat hunarmandchilik sohalarining ayrimlari haqidagina ma'lumotlar berilgan. Qadimgi davrdan boshlab Xiva haqida ko'plab kitoblar yozilgan,

ulardan ko'pchiligi asosan xonliklar davrida xonlarning topshirig'i bilan yozilgan bo'lib, ulardan bizga oz qismigina yetib kelgan. Bu manbalar orqali biz Xiva xonligida qadimdan rivojlanib kelayotgan hunarmandchilik turlari haqida ham ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xiva tarixiga bag'ishlangan nodir asarlardan biri Abulg'ozi Bahodirxon tomonidan yozilgan "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlari hisonlanadi. Xiva xonligi tarixini to'laqonli yoritishga xissa qo'shgan muarrixlardan biri Muxammad Yusuf Bayoniy hisoblanadi. U 1911-1914 yillarda "Shajarayi Xorazmshohiy" nomli 16 bobdan iborat katta tarixiy asar yozgan. Bayoniyning zamondoshi bo'lgan Sayid Xomid tura Qomyob ham o'zining "Tavorix ul-xavonin" ("Xonlar tarixi")¹ asarida Xiva xonligi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixidan o'rin olgan yirik arboblarning hayotini yoritgan. Bu kitobda yana ko'plab sohalar kabi hunarmandchilik ham tilga olinadi. Yuqorida tilga olingan xorazmlik solnomachilar va muarrixlar asarlarida: Xiva xonligining ma'muriy boshqaruv tizimi, unvon va mansablar; erga egalik munosabatlari; sug'orish ishlari; soliq masalalari; jug'rofiy ma'lumotlar; qo'shni davlatlar bilan elchilik va savdo-sotik aloqalari; xonlik aholisining etnik tarkibi va etnomadaniy jarayonlar, aholining hunarmandchilik bilan shug'ullanishi, obodonchilik masalalari, madaniy hayotiga doir noyob ma'lumotlar bor. Xiva xonligi tarixini o'rganishning yangi sahifasi chor Rossiyasi bosqinidan keyin boshlandi. Xiva xonligi tarixini ilmiy asosda haqqoniy yoritish ishiga taniqli rus olimlaridan V.V.Bartold, I.Veselovskiy va S.V.Jukovskiy katta hissa qo'shishgan. Mustaqillik sharoitidan Xiva xonligi tarixi va madaniyataga doir dissertastiyalar va boshqa tadqiqotlar ham amalga oshirildi. Ular qatorida M.Matniyozov², M.Matkarimov, Nurullayeva.Sh³. A.Abdurasulov, M.Abduraxmonov, E.Axundjonov, M.Madaminov, M.Mamajonov, O.Masalieva, D.Yu.Yusupova, O.M. utalov, S.Saburova, Xudoyberganov, N.Allaeva M, Matyaqubova M, monografiya va dissertastiyalarini qayd etib o'tish mumkin.

¹ Sayid Xomid tura Qomyob ham o'zining Tavorix ul-xavonin. Toshkent., 2000. B. 45.

² Матниязов М. Хива хонлигида яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли. (XIX аср XX аср бошлари) 2 наشري—Урганч: Хоразм, 2004. Б. 34.

³ Нуруллаева Ш., Жуманазарова М. Хоразм анъанавий кийим ва тақинчоқлари. (XIX аср охири- XX аср иккинчи ярми). Тошкент: Янги аср, 2013. Б. 33.

Bundan tashqari mustaqillik sharoitida “O‘zbekistonning yangi tarixi” mashrining “Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” nomli birinchi kitobi, UzR. FA Tarix instituti olimlari tomonidan “Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shoxidligi va saboqlari” va “O‘zbek davlatchiligi tarixidan lavxalar” nomli kitoblarning yozilishi va nashr qilinishi ham ahamiyatga ega bo‘ldi. Mavzuning tarixshunosligi taxlili shuni ko‘rsatadiki, Xiva xonligi tarixini asos solingandan to tugatilgungacha bo‘lgan davri, undagi siyosiy jarayonlar alohida tadqiqot ob‘ekta sifatida o‘rganilmagan. Shu sababli, o‘ta murakkab bo‘lsada, Xiva xonligi tarixining siyosiy qirralarini oydinlashtirish mazkur tadqiqotning asosiy vazifalari va maqsadining shakllanishiga turtki berdi.

Bitiruv Malakaviy Ishining maqsad va vazifalari sifatida Xorazm xalq amaliy san‘ati namunalarining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy sharoitlarini o‘rganish, hunarmandchilik sohasida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos an‘analarni aniqlash, O‘rta Sharq va Evropa mamlakatlari hamda ko‘chmanchilar dunyosi bilan savdo aloqalarida voqea shaharlarining o‘rni, o‘zaro aloqalarni bog‘lab turishda karvon yo‘llari va karvonsaroylarning ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirishda hunarmandchilik turlarining o‘ziga xos tarixini tadqiq qilib, har tomonlama haqqoniy yoritish muammosi qo‘yiladi. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi muammolarni ob‘ektiv ravishda yoritishga harakat qilinadi:

- Xorazm xalq amaliy san‘ati buyumlarining vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari yoritilishidagi ilmiy asosda yozilgan manbalarni aniqlash;
- Xorazm hunarmandchilik turlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish;
- Markaziy Osiyo va Evropa mamlakatlari bilan o‘rta asrlarda savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirishda Xorazm hunarmandchilik mahsulotlarining ro‘lini yozma va yangi arxeologik ma‘lumotlar asosida haqqoniy yoritish;

- Xorazmda tashkil topgan Xiva xonligida zargarlik san'atining tarixini o'rganish va tahlil qilish;
- Xiva xonligida faoliyat yuritayotgan zargar ustalar va hozirda rivojlanayotgan zargarlik sanoatini o'rganish;
- Xiva xonligida rivoj topgan zargarlik san'atining turlarini ilmiy manbalar asosida o'rganish va tahlil qilish.
- Xiva xonligida rivojlanayotgan zargarlik san'atining rivojini ilmiy tahlil qilish asosida uning boshqa viloyatlar zargarlik san'ati namunalari bilan taqqoslash hamda ularning o'ziga xos belgilarini aniqlash;
- Xiva xonligida rivoj topgan zargarlik san'atining turlarini ilmiy manbalar asosida o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv Malakaviy Ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti sifatida o'zbek davlatchiligining muhim tayanchlaridan biri bo'lgan Xiva xonligida rivoj topayotgan xalq amaliy san'ati namunalari o'rganib, zargarlik san'atining rivojlanish bosqichlarini ilmiy tahlil qilib, zargarlik san'atining tarixini yangi ma'lumotlar va milliy istiqlol mafkurasi talablari asosida yoritish maqsad va mavzu sifatida tanlab olingan. O'z vaqtida ro'y bergan murakkab siyosiy jarayonlarda vujudga kelgan Xiva xonligi nafaqat o'lkadagi dastlabki o'zbek xalq nomi bilan shakllangan davlat, balki uzoq va yaqin mamlakatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatib, kelajakga ishonadigan yangi millatni dunyoga tanitgan saltanatlardan biri hisoblanadi.

Bitiruv Malakaviy Ishining ilmiy manbalari sifatida nashr qilingan hujjatlar to'plamlari, xorazmlik solnomanavislarning qo'lyozma asarlari (UzR. FASHI. xazinasida), O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Xorazm viloyat Davlat arxivi, Xiva "Ichon qal'a" muzey qo'riqxonasi arxivi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat Milliy kutubxonasi, Burbon ota Ismoilov nomidagi Xorazm viloyati Axborot resurs markazida saqlanayotgan noyob kitoblar va Internet saytlariga kiritilgan ma'lumotlar olingan. Ishda ko'p yillar davomida tadqiqotchi olimlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar tanqidiy tahlil qilinib, mustaqillik mafkurasi asosida qayta o'zgartirib chiqilgan.

Bitiruv Malakaviy Ishining ilmiy yangiligi: Ilmiy ishda Xiva xonligida rivojlanayotgan xalq amaliy san'ati tarixini yangi ma'lumotlar asosida va mustaqil mavzu sifatida to'laqonli yoritilishi natijasida Xivada zargarlik san'atining qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari haqida ob'ektiv xulosalar ilgari surildi;

— Qadimgi davrdan boshlab Xorazmda xalq amaliy san'atining rivoj topishi va hunarmandchilikning rivojlanish tarixi mustaqil ravishda o'rganildi va ilmiy asoslandi;

— hunarmandchilik sohasi bo'lmish zargarlik san'atining tarixi va unda ishlatiladigan ashyolar manbalar asosida ko'rsatildi;

— zargar ustalar va hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan zargarlik sanoati o'rganildi;

— Xiva xonligida zargarlik san'ati va uning turlari manbalar va adabiyotlar asosida o'rganildi; XIX asr birinchi yarmida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy yuksalish sabablari, yutuq va kamchiliklari taxlil qilindi;

— xonlikning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinish sabablari, fojialari, va uning xalq hunarmandchiligiga ta'sirining o'ziga xos tomonlari o'rganildi;

— hozirgi kunda Xiva xonligida rivojlanayotgan zargarlik san'atining boshqa viloyatlar zargarlik san'ati namunalari bilan qiyoslab ularning hududiy farqlari o'rganildi va baho berildi.

Bitiruv Malakaviy Ishining nazariy va metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari, maqolalari, asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, maqolalari, asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq qarorlari, taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

Tanlangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni yanada chuqurroq va batafsilroq yoritish uchun bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Bitiruv Malakaviy ishning davriy chegarasi. Xiva xonligi 1512 yildan tashkil topib to uning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinib to tugatilgunigacha bo'lgan ya'ni 1920 yilgacha bo'lgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy davr jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bitiruv Malakaviy ishning tuzilishi. Kirish, II bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat.

I bob. Xiva xonligida zargarlik san'atining tarixi

1.1. Xiva xonligida hunarmandchilik turlari

Xiva shahri sharq xalqlarini qadimiy madaniyati beshigi Xorazmning ko'p asrlik me'moriy qurilish an'alarini, hunarmandchilik sohalarini meros qilib olgan, Xorazm me'morlari san'ati va mehnatining ijodiy yakunidir⁴. Tarixdan ma'lumki, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Xivadan ko'plab badiiy hunarmandchilik namunalari dunyoga mashhur olimlarning nodir qo'lyozmalari butun dunyoga tarqalgan. Hozirda ham ushbu asori- atiqalar Amerika, Evropa, va Osiyoning eng yirik muzeylari ekspozitsiyalarini bezab turibdi. Hunarmandchilik— milliy-an'aviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mexnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mexnatiga asoslangan sanoat turi; shunday maxsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi⁵. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalar keyin ham saqlangan. Kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo'jaligida hozir ham muhim o'rin egallaydi.. Insonning ish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, , zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar.) ga ajraldi. Har qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik ma'danlarga boy yerlarda metall ishi va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan Rivojlangan mamlakatlarda yakka buyurtmalar va qimmatbaxo badiiy buyumlar tayyorlaydigan hunarmandchilik sohalarigina (tikuvchilik, etikdo'zlik,

⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: 2000. Б. 14.

⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 Ҳарфи. Б. 67.

gilamchilik, zargarlik, o'ymakorlik va boshqalar.) saqlanib qoldi. " Xivada XIX asr boshlarida 6 ta kigizfurush ustaxonasi, 17 nafar ipak to'quvchi, 26 nafar xarrot, 18 nafar novvoy, 38 nafar misgar, 16 nafar choponfurush, 17 nafar sovunchi, 18 nafar ko'nchi, 80 nafar qassob, 83 nafar juvozchi, 60 nafar bo'yoqchi, 44 nafar danmachi (guruch oqlovchi), 27 nafar qulfgar, 40 nafar etikdo'z, 42 nafar zargar va boshqa kasb-hunar egalari bor edi. Hunarmandchilik shahar aholisi o'rtasida shu tariqa tabaqalashgandi. Tayyorlangan mahsulotlar asosan shahar bozorlarida sotilardi"⁶. Xivada hunarmandchilikning 27 turi rivoj topgan, shahardagi bozorlarda hunarmandlarning 556 do'koni bo'lgan, 80-yillarda shaharda 2528 xo'jalik hunarmandchilik bilan shug'ullangan⁷. Masalan, terini qayta ishlash soxasida ko'nchilar, etikdo'zlar, maxsido'zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar; to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishlash soxasida temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo'lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasini belgilangan. Badiiy xunarmandchilik va me'morchilik yodgorliklari bo'lmish qator madrasalar, masjidlar va saroylar qad ko'tardi. Arab Muhammad madrasasi (1616), Anushaxon masjidi va xammomi (1657), Sheg'ozixon madrasasi (1718-1719), Muhammad Inoq madrasasi, Ko'hna Ark, Sayid Alavuddin maqbarasi, Oqmasjid (XVII- asr) kabilar shular jumlasidandir⁸. Xorazm me'morchilik san'atining bu noyob yodgorliklari xalq ustalari, quruvchilar, muxandislar, naqqoshlar, rossomlar hamda yog'och va ganchkor o'ymakorlarining yuksak maxoratidan darak beradi. Nikolay Muravyevning "Turkmaniston bilan Xivaga sayohati "«Xiva»"-poytaxt shahar. Aytishlaricha, qadimda Xivaq deb atalgan . Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirmasdan avval, bunyod etilgan. U katta shahar. Mashhur imoratlari madrasa, xon saroyi va ibodat qiladigan masjid bo'lib, masjid gumbazi feruza rangli koshin bilan qoplangan . Xonning hovlisi ko'p

⁶ Иванов П. П. Архив Хивинских ханов. XIX в. . Ленинград 1940, -Б. 138.

⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000. - Б. 23.

⁸ Норкулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: Шарк, 2003. II боб. - Б. 20.

ham katta bo'lmay, unda ham bir necha kichik masjid mavjud. Uylari loydan qurilgan, ko'chalari tor. Shaharda bir necha kichik do'konlar ham bo'lib, (bozorida) haftada ikki marta oldi-sotdi bo'ladi. (Xivada) 3000 ga yaqin xonadon bo'lib, xalqi 10 000 jon atrofida. Shahar xonlikdagi boshqa shaharlar singari, ekinzorlar va katta bog'-rog'lar bilan o'ralgan. Bog' o'rtasida kichik-kichik qal'alar va uylar joylashgan»⁹. Xiva xonligida bunda (g'alachilik, bog'dorchilik, polizchilik, chorvachilikdan) tashqari, hunarmandchilik bilan ham shug'ullanadilar. Xivaliklar (bundan tashqari) chiroyli ipak belbog'lar ham tikadilar. Lekin, u ham, boshqa qo'l mahsulotlari singari, chetga chiqarilmaydi, Xivaning o'zida qoladi. Xivaliklar boy-badavlat va to'kin-sochin yashamaydilar, pullari kam. Topgani kundalik tirikchilik va xonga soliq to'lashdan ortmaydi. Umuman olganda, xivaliklar hunarmandchilikda ko'p ham malakali emaslar. Umuman temir idish va buyumlarni yasamaydilar, ularni rus asirlari yasaydilar. Garchi mis o'sha yerdagi konlardan qazib olinsada, undan buyumlar yasashni bilmaydilar. Misdan yasalgan idish-tovoq va boshqa buyumlarni Rossiyadan olib keladilar. Oyna haqida esa hech narsa bilmaydilar, ko'pchilik uni hatto ko'rmagan ham. Shu sabadan Xivada oyna juda kam va qimmat»¹⁰. Xonlikda ipak, yarim ipak va paxta matolar ishlab chiqarilgan. Matolar asosan qo'lda tayyorlangan. Undan tashqari xonlikda kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik duradgorlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari ham rivojlangan. Manbalar shahar va qishloqlarda er haydaydigan moslama tayyorlovchilar (pazachi), ot abzali tayyorlovchilar (kuchanchi), misgarlar, zargarlar, pichoqchilar, qinchilar, bo'yoqchilar, telpakdo'zlar, qulfgarlar, juvozchilar, shamchilar, sovunchilar, novvoylar, oshpazlar kabilar maxsus kasb-hunarga ixtisoslashganliklari haqida ma'lumotlar beradi. Xivada gilam to'qish o'zining qadimiy ahamiyatini xonlik davrida ham saqlab qoldi. Ilgarigidek, gilam to'qish bilan turkmanlar ham shug'ullanganlar. Xiva gilamlari ichki va tashqi bozorda mashhur bo'lgan.

⁹⁹ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819-1820 гг. гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, послонного к сию страну для переговоров. Ч. 1-2, -М., 1822

¹⁰ Эшмурадов.М.Ж. Хоразм манбаларида давлатчилик тарихи. Тошкент: Фан ва технология, 2011.-Б. 19.

Umuman olganda, mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilgan. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab, Orenburg shahriga asos solingach Xiva savdogarlari Uralbo'yi orqali savdo-sotiqni yanada jonlantirdilar. Xivadan Rossiyaga paxta matolar, mevalar, qimmatbaho toshlar, qog'oz mahsulotlari, parcha va buyum shaklidagi ipak va yarim ipak matolar, gilamlar, tuya junidan matolar, qisman qorako'l, guruch, sayg'oq (kiyik) shohi, kashmir matosi kabi mahsulotlar olib borilgan. Rossiyadan esa Xivaga oltin va kumush tangalar, mis, cho'yan, temir va boshqa metallar, paxta, ipak va yung matolar, bo'yoqlar, shakar, choy, billur idishlar, oshlangan teri kabi mahsulotlar keltirilgan¹¹. Xorazm me'morchilik san'atining bu noyob yodgorliklari xalq ustalari, quruvchilar, muxandislar, naqqoshlar, rossomlar hamda yog'och va ganchkor o'ymakorlarining yuksak maxoratidan darak beradi. Xiva xonligi savdogarlari qo'shni Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan, shuningdek, Xitoy, Eron, Afg'oniston, Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borganlar. Bu davlatlarga Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan birga mahalliy mahsulotlar (zargarlik buyumlari, gilamlar, otlar) ham olib borilgan¹². CHet davlatlardan asosan turli matolar, metall, ziravorlar, bo'yoqlar, fil suyagi, shakar (qand) kabi mahsulotlar keltirilgan. Xiva xonligining Yangi Urganch, Kichik Vazir, Qiyot, Xonqa, Tirsak, Gurlan, Xazorasp, Qo'ng'iroq, SHohabboz kabi shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari edi. Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning birinchi yarmida Yangi Urganch himoya devorlari bilan o'rab olingan savdo markazi bo'lib, unda bir yarim mingta xonadon bo'lgan. Xiva xonligi shahar hunarmandchiligi rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan uy hunarmandchiligi ommaviy tus olgan edi. Xatto, ko'chmanchilik bilan shug'ullangan. Ilali, Porsu, G'azovot, Mang'it va boshqa yerlardagi turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar ham uy hunarmandchiligi bilan shug'ullanib gilamlar, paloslar, kigizlar, chaponlar, oyoq kiyimlari ishlaganlar¹³. Uy hunarmandchiligi ana shu asosda har bir dehqon xo'jaligini

¹¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиқ тарихи. Тошкент: 2000.- Б. 75.

¹² Содиқов А. Россия и Хива в конце XIX и начале XX в.-Тошкент: Фан, 1972.-с.19-20.

¹³ Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар, №9320, -Б. 85.

qo'shimcha daromad manbai hisoblangan. Shahar hunarmandchiligida metallni qayta ishlash hunarmandchiligi alohida o'rin tutib, Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Xozarasp va boshqa shaharlarda rivoj topgan. Ularda ketmon, bel, bolta singari qishloq xo'jalik asboblari, qilich, xanjar, pichoq va boshqa qurollar yasalgan. Xiva, Xonqa, Yangi-Urganch, Xo'jayli shaharlarida bo'lsa, terini qayta ishlash hunarmandchiligi, Yangi Urganchda arqon va qop yasash rivojlangan. Xiva hunarmandlari ishlagan sopolchilik, o'ymakorlik, zargarlik buyumlari faqat ichki bozorda emas, balki Rossiya, Buxoro, Turkiston, Eron, Afg'oniston bozorlarida ham juda xaridorbob bo'lgan¹⁴. XIX asrning 70-80 yillarida xonlikda ipak, yarim ipak matolari tayyorlovchi 46 to'quvchilik korxonalari vujudga kelgan. 1917 yilda faqat Xiva shahrining o'zida 928 joyda mayda hunarmandchilik ustaxonalari bo'lib, ularda 2000 ga yaqin hunarmandlar ishlar edi¹⁵. Mavjud hunarmandchilik ustaxonalarining 97 tasi metallni qayta ishlashga, 127 tasi yog'ochni qayta ishlashga, 27 ximiyaviy mahsulotlarni ishlash va qayta ishlashga, 247 tasi oziq-ovqat va shirinlik mahsulotlarini ishlashga, 127 tasi terini qayta ishlash va bichishga, 39 tasi ipak ishlashga, 180 tasi kiyim tikishga, 49 tasi qurilishga, 10 tasi loy ishlashga, 25 tasi jun ishlashga ixtisoslashgan edi¹⁶. Har bir qishloqda ko'nychilik, etikchilik, bo'zchilik, pozachilik, temirchilik, bo'yoqchilik, juvozchilik, xo'rozchilik va boshqa o'nlagan hunarlar bilan shug'ullanganlar.

Xonlikdagi qishloq hunarmandchiligining o'ziga xos tomoni shundaki, u sex korporatsiyasiga birlashmagan. Natural xo'jalik asosida, bozor bilan kam aloqada bo'lgan holda mahsulot ishlab chiqargan. Rus istilosidan keyin xonlikda fabrika zavod sanoati rivojlana boshladi. Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan va chet davlatlardan og'ir sharoitlar va narxlar asosida sotib olinayotgan paxta va boshqa xom ashyolarga nisbatan Xiva xonligida mavjud bo'lgan xom ashyo manbalari arzon va qulay edi. Shuning uchun ham rus sanoati va savdogarlari o'z aksiyalarini Xiva xonligida savdo va sudxo'rlik

¹⁴ Жабборов И.М. Антик давр маданияти ва хазинаси. – Ташкент: Ўқитувчи, 2006. –Б. 56.

¹⁵ Иванин М.И. Сведения о Хивинскому ханстве // Манфактура и торгоновля. 1843. №4

¹⁶ Эшмурадов.М.Ж. Хоразм манбаларида давлатчилик тарихи . Тошкент: Фан ва технология, 2011. –Б. 89.

kapitali sifatida qo'ya boshladilar. Xonlik hududida rus manufakturalari va firmalari tomonidan paxta tozalash, yog', g'isht, teri ishlash, beda urug'i ishlash zavodlari qurila boshlandi¹⁷. Xiva xonligida hunarmandchilik qadimgi davrdan rivojlanib kelayotgan sohalardan biri hisoblanib, asrlar davomida shakllangan. Xiva xonligida o'zaro urushlar hunarmandchilik sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, ayniqsa rus bosqini davrida hunarmandchilik ancha orqada qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, bu soha vakillari mohir hunarmandlar ustalar yuksak san'at asarlarini yarata oldilar. Xiva xonligida hunarmandchilikning juda ko'plab turlarini aytishimiz mumkin. Ko'plab manbalarda xonlikda hunarmandlar soni 556 nafar, turi 27 ta kasb haqida aytib o'tilgan bo'lib, ayrim manbalarda esa bundan ham ko'p hunarmandchilik sohalari haqida aytib o'tiladi. Xiva xonligida asosan rivojlangan hunarmandchilik turlariga temirchi-chilangarlar, zargarlik, tunukachilar, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, cho'girmado'zlar, pichoqchilik, to'qimachilik, bo'zchilar, juvozchilar, dapmachi (sholi oqlovchilar), naqqoshlar, gilamdo'zlar va yana boshqa shu kabi turlarini kirg'izish mumkin. Xonlikda hunarmandchilikning ba'zi bir turlari yuksak taraqqiy etib, o'ziga hos maktablar ham shakllangan. Shunday hunarmandchilik turlaridan biri yog'och o'ymakorligi hisoblanadi. Yog'och o'ymakorligi haqida aytadigan bo'lsak, yog'och o'ymakorligining o'ziga xos turli uslub va usullari bor. Masalan, Xiva yog'och o'ymakorligi o'ymasining monumentalligi, yog'och tabiiy rangining saqlab qolishi bilan boshqalardan farqlanadi¹⁸. Buxoro yog'och o'ymakorligi esa o'yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Marg'ilon yog'och o'ymakorligi chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelganlar. Qo'qon o'ymakorligi esa kalta bo'rtmali, yassi o'rma ishlatganlar. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan¹⁹. Yog'och o'ymakorligi maktablari taxminan 40-50 yillardan keyin

¹⁷ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. –B. 91.

¹⁸ Ҳасанов. Р. Амалий безак санъати методикаси. Тошкент: 2003. – Б. 78.

¹⁹ Булатов.С.Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. –Б. 56.

paydo bo'lgan. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi (harakatchanligi, dinamikaviyligi), ya'ni novdalarni speralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil qilishi bilan farq qiladi. Xiva o'ymakorligi ustalari ko'pincha qayrog'och, terak va chinor yog'ochlarni ko'proq ishlatadilar. Ular yog'och rangining tabiiyligini saqlagan holda uning yuzasiga va zaminiga paxta, zig'ir (xorazmcha - oq yog') yog'i beriladi. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi o'zining monumentalligi bilan mashhurdir. Xiva naqshining go'zalligi, naqshlarning turli chuqurlikda o'yilishi orqali katta aniqlikka va uyg'unlikka erishishdadir. Ustalar yog'ochning tabiiy ko'rinishini saqlashga harakat qilib, yangi o'yma yuzasini silliqlash, bo'yoq surtish ishlarini qo'llamaganlar. Ota Polvonov, Sapo Boqbekov va boshqalar Xiva maktabi ustalaridandir. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'ymalarning juda mayda o'yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi, ya'ni geometrik, o'simliksimon va gulli girix kompozitsiyalari hamma zamin va releflarni laklashdan boshlanadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog'ochlari ishlatiladi. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi Asatulla, M. Jumaboy, Abduxofiz Jalilov, Usta Nasrulla, Nurali Nazrullayev va boshqalardir.

Marmar o'ymakorligi san'ati Xorazmda nisbatan kam rivojlangan. Buning sababi birinchidan geografik muhit (Xorazm Qoraqum va Qizilqum saxrolari oralig'ida joylashganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan islom kirib kelgach, tasvir bilan bog'liq san'at sifatida kam e'tibor berilgan²⁰). Xorazm xalq amaliy san'ati turlari ichida zargarlik alohida o'rin egallaydi. U juda qadimiy tarixga ega. Neolit davridayoq bu erda shildiroq munchoqlar, tosh, chig'anoq va suyakdan bezaklar yasalgan. Qadimgi Xorazmshoxlarning poytaxti Tuproqqal'a devorlaridagi tasvirlarda o'sha davr ayollari quloqlariga nafis zirak taqqanlarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Xorazmning boshqa qadimiy qal'alaridan ham qadimgi

²⁰ Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2 таҳрир. Тошкент: Тафаккур, 1987-2001. – Б. 14.

davrlarga mansub bronzadan ishlangan ayollarning osma taqinchoqlari topilgan. Markazlashgan davlat qanchalik kuchli bo'lsa, shu davlatning hunarmandlari tomonidan ishlangan badiiy bezak buyumlari chiroyli va sifatli bo'lgan. Zargarlik ta'limini o'rgatish muddati 4 yildan 7 yilgacha bo'lib, ayrim qobilyatli shogirdni 10 yilgacha saqlaganlar. Usta o'zining malakali ishchisidan ayrilishni xohlamagan. Bunday xolatda shogird oqsoqolni o'rta solib, usta tezroq ruxsat berishini yoki xaq to'lashini talab qilgan. Shogirdning talabi tog'ri bo'lsa, unda oqsoqol ustadan shogirdiga oq fotixa berishini yoki unga haq to'lash kerakligini aytgan. Bu xaq xalfalarga to'lanadigan puldan kam bo'lgan. Talantli va qobilyatli shogirdlar o'rtasida norozilik kayfiyati bo'lmasligi uchun usta shogirdlariga ish olishlariga qarshilik qilmagan, lekin usta pulning ko'p qismini o'ziga olib qolgan. Usta o'z shogirdini o'qish muddati tugaganidan so'ng, uni uyiga yuborish o'ziga xos marosim hisoblangan, marosimni "arvoxir", "miyon bandon" deb atalgan, ya'ni kasb-hunar homiylarining ruxi qo'llab yursin degan ma'noni bildirgan. Shogird o'z uyiga usta, bobo, oqsoqol poykor va zargarlik uyushma a'zolarini taklif qilgan. Ustaga bosh-ayoq sarpoy, tugun, bobo, oqsoqol, poykorlarga ham biror narsa berilgan. Shogirdiga usta "shohimardon xaqiga beling belbog' bog'lading" deya oq fotixa bergan. Keyin usta shogirdini mustaqil ishlashiga ruxsat bergan. Shunda usta shogirdining kelajakda qiynalmasligi uchun unga kergi, qaychi va boshqa narsalar berar edi. Ba'zi shogirdlar oq fotixa olganlaridan so'ng, iqtisodiy tomondan nochor bo'lsa, ustanikida qolib ishlashga ruxsat so'rar, usta esa unga xalfa tarzida xaq to'lagan²¹.

Qadim-qadimdan inson tabiat in'om qilgan ne'matlardan foydalanib kelgan. Jumladan, er yuzining birdan sovib ketishi natijasida odamlar terini ust kiyim o'rnida yopinganlar, asta-sekin odamlar hayvon terisini oshlashni va unga ishlov berib, undan charm tayyorlashni, charmdan esa kiyim-bosh, turli buyumlar qilishni o'rgangan, buning natijasida ko'pchilik kasbi vujudga kelgan. Vaqt o'tishi bilan

²¹ Ҳасанов. Р. Амалий безак санъати методикаси. Тошкент: 2003. – Б. 67.

odamlar o'zlariga har xil issiq junlardan kiyim tikib kiyganlar. Odamlarning abjirlari ovchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib teridan o'zlariga alohida kiyim-boshlar tayyorlab kiyganlar. Sinfy tabaqalanish natijasida asl mo'ynalardan aslzodalar va ularning yaqinlariga kiyim-boshlar tikilgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyin ayrim xalqlar o'z yozuvlarini teriga bitganlar. Xorazmlik vatandoshimiz Zardusht tomonidan bitilgan "Avesto" kitobi ham 12 ming oshlangan qoramol terisiga bitilgan²². Vaqt o'tishi bilan markazlashgan davlatlar vujudga kelishi natijasida shaharlarda hunarmandchilik shu darajada rivojlandiki, bir xil mahsulotdan har xil buyumlarni tayyorlaydigan ustalar o'z hunarlarini rivojlantirib san'at darjasiga olib chiqishgan, hatto bu jarayon vatanni dushmanlar egallagan, shaharlar vayron bo'lgan davrlarda ham to'xtamagan. XIII asr boshlaridagi mo'g'ullar bosqini natijasida butun Markaziy Osiyo yong'in ostida qoldi. Oqibatda iqtisodiyot, madaniyat, hunarmandchilikka putur etdi. Mana shunday og'ir ahvolda ham Markaziy Osiyolik, jumladan, xorazmlik kosib-hunarmandlar juvonmardiylik bayrog'i ostida uyushgan holda faoliyat ko'rsatganlar. Tariqatning ushbu yo'nalishining vakillari Ollohning nomini tilidan qo'ymaydigan, hamisha toat-ibodat bilan shug'ullanadigan kishilar bo'libgina qolmay mardlik, saxovat, xalollik kabi bir qator insoniy fazilatlarning egalari bo'lganlar. Ushbu yo'nalish vakillari bir qancha kasb egalari bo'libgina qolmay yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydigan ustozlar bo'lishi kerakligi Xusayin Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoni" kitobida qayta-qayta ta'kidlangan. Ko'nchilikning po'stindo'zlik turi bilan mashg'ul bo'lgan Pahlavon Mahmud ham mohir hunarmand bo'lib, ota kasbi po'stindo'zlik bilan shug'ullanib juvonmardiylik bayrog'ini baland ko'targan²³.

Ko'nchilik – chorvachilik rivojlangan barcha yerlarda keng tarqalgan, xususan Xorazmda XX asr boshlarida 300 dan ortiq ko'nchilik do'koni bo'lib, Xiva, Hazorasp, Xonqa va Yangi Urganch shaharlari Xorazmning yirik ko'nchilik

²² Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. –Б. 45.

²³ Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. –Б. 87.

markazlari hisoblangan²⁴. Ko'nchilik bilan shug'ullanadigan ustalarning kasblari zamon o'zgarishi bilan har xil nomlar bilan atalgan. Po'stindo'z, tagcharm ishlab chiqaruvchilar - charmgar, yumshoq ko'n ishlab chiqaruvchilar - saxtiyongar, mesh tayyorlovchilar - meshgar, charmdan oyoq kiyimlari tikadigan ustalarning o'zi uch xil nom bilan atalgan - etikdo'z, maxsido'z va kovush, bosh kiyim tayyorlaydigan ustalar cho'girmado'z, telpakchi va tumoqchi, dubulg'achi deb nomlangan.

Ko'nchilarning mahsulotlariga har doim talab katta bo'lgan. Tayyor teridan turli xil poyafzal, bosh kiyim, po'stin, egar-jabdug' va ot- abzallarini, suv tashish uchun mesh, turli to'rva, xalta, sandiqlar va boshqa uy-anjomlar, kitob uchun muqovalar va juzdonlarni ishlab chiqarganlar. Erkak, ayol, bolalar poyafzallarining an'anaviy assortimentlari turli xil edi: maxsi - yumshoq tagcharmli etik, unga mos kavush; yaltiratilgan qora teridan yasalgan - amirkon maxsi, amirkon kavush; baland poshnali etiklar. Erkaklarning maxsilari mardona maxsi deb atalgan bo'lib, ayollarning "zaifona maxsi"lariga qaraganda balandroq tikilgan va odatda qattiqroq teridan tayyorlangan, bolalarning "bachkana maxsi"si yumshoq teridan tikilgan. Qishloq joylarida etiklar bilan bir qatorda choriq deb ataluvchi dag'al teridan tayyorlangan yarim ochiq poyafzal kiyishgan. Qo'y terisidan junlarini ichkariga qaratib oyoq boldirlarini yopib turuvchi teri maxsi tikkanlar. Po'stinlarni oshlangan qo'y terisidan, junlarini ichkariga qaratib tikkanlar va to'q sariq rangga bo'yaganlar. Mustahkam yashil rangli echki terisidan qilichlar uchun qin, etiklar uchun poypoq tovonini, egar uchun bezaklar tayyorlaganlar. Qishda do'ppi ustidan dumaloq, jundan bo'lgan telpak kiyganlar. Buxoro vodiysida va unga yaqin tumanlarda telpaklar qiya konus shaklida bo'lgan. Xorazmda ko'nchilik kasbining keng rivojlangan turi xorazmcha cho'girma - telpaklar tayyorlash bo'lib, bu kasb turi bilan o'tgan asrda 60 nafar usta shug'ullangan. Xorazmda ustalar ota kasbidan tashqari shu kasbga aloqador boshqa kasb-korlarni ham qunt bilan o'rganganlar. Masalan: Po'stindo'z usta Niyozmetov Olloquli otani o'g'li Sapo Olloquliev

²⁴ Норкулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: Шарқ, 2003. II боб, -Б. 20.

Xorazmning har xil bosh kiyimlarini tikishni o'rganib telpakdo'zlik bilan shug'ullangan va o'z kasbining ustasi sifatida ko'p yillar davomida mehnat qilgan. Bu kasb egalari el o'rtasida e'zozlangan, shundanmi Xorazmda "Oyoqda etiging bo'lmasa ham boshda cho'girmang bo'lsin" degan naql bor. Cho'girmado'z ustalar insonlarni yuz-ko'ziga, mansabiga, kelib chiqishiga qarab har xil qo'y terilaridan cho'girmalar tikkanlar. Ilgari cho'girmasiga qarab odamning mansabini bilib olish mumkin bo'lgan. Aholining ko'pchilik qismi asosan qora, qo'ng'ir, sheroziy rangli cho'girma kiygan. "Er kishining cho'girmasi erga tushgani – o'lgani" degan naqlni bolaligimizdan eshitib kelamiz. Chunki qadimda farzandi yuzini erga qaratasa, ota bosh kiyimidan mahrum qilingan. Xorazm o'zining qadimiy yodgorliklari bilan jahonga mashhurdir. Xorazmdagi Islomxo'ja minorasi, Faxriddin Roziy maqbarasi, Juma machiti va boshqa tarixiy obidalar O'rta asr Sharq me'morchilik san'atining go'zal namunalaridan biridir. Ular o'zining soddaligi va naqsh motivlarining ulug'vorligi bilan dunyoga dong taratgan. Xivadagi tarixiy obidalarining har biri shahar me'morchilik ansambilining tarkibiy qismi bo'lsada, ammo ularning har qaysisi o'ziga xos takrorlanmas san'at asaridir. Juma machitning naqshlari rang-barangligi bilan kishini qoyil qoldiradi, o'yma marmar plitalar, sirlangan g'ishtlardan terilgan naqshin devorlar, terrokata mozaikadan ishlangan shakllar tokchalar, devorlarga solingan tasvitlar o'zaro uyg'unlashib yaxlit badiiylik hosil qiladi. Faxriddin Roziy maqbarasidagi o'yib, chizib, pishirib ishlangan naqshlar ko'zni qamashtiradi. Bu naqshlar Xorazmning badiiy arxitektura yodgorliklari XIX - XX boshlarida Xiva shahrida bir joyda yaxlit holda to'planib qolganini ko'ramiz qiladi. Chunonchi, Toshhovli va Saidboy masjidiga ishlangan ganch o'ymakorligi qandaydir qo'pol o'yilgan bo'lsada, tez o'yilgan bo'lib, o'yma naqsh dinamikililigiga ega. Bu ganch o'ymakorligiga choka naqsh berilgan. Xorazmda ko'pincha choka pardozdan foydalanilib kelingan. Ganch o'ymakor ustalar ko'p bo'lsada, lekin ba'zilar o'ymaga moslab naqsh kompozitsiyasini chiza olmas edilar. Shuning uchun ular maxsus naqsh chizib beruvchilarga murojat qilar edilar.

Xiva xonligida Gilam to'qish san'ati xalq amaliy san'atining keng tarqalgan turi bo'lib, ko'p asrlik milliy an'ana va uzoq tarixga ega²⁵. Gilam to'qish badiiy to'qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to'qish san'ati ayniqsa chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga yoki bo'yra ustiga to'shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o'tov ichiga o'raladi. Bu san'at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab berdi. Gilamchilik bu to'quvchilikning bir turi bo'lib, u ancha qadimiy kasb. Oddiy gilamlarga ancha yupqa bo'lgan palos, to'shamani aytish mumkin. Gilamning ancha murakkab shakli bu qalin, yumshoq, bezakli, yuksak mahorat bilan to'qilgan gilam bo'lib, ular hozir ham, ilgari ham keng tarqalgan.

Zardo'zlik – xunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla) ,do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi. Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega . Zardo'zlikning vatani Vavilion bo'lib , u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach , zar , ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan dunyoga mashxur bo'lgan²⁶ . Vizantiyada zardo'zi kiyim-kechaklarini faqat imperator a'yonlari , asilzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat va siyosiy hamkorlik qilish tufayli zardo'zlik san'ati Eron podsholik saroyida ham rivoj topgan . Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi . Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo'zlik san'ati kirib keldi . Kichik Osiyo hududida zardo'zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi .O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir.Xorazmning Xiva xonligi hududida ham zardo'zlik san'ati yaxshi rivojlangan. Zardo'zlik san'ati o'ziga xos uztoz- shogird

²⁵ Булатов С. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент, 1991.- Б. 14.

²⁶ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 харфи. – Б. 34.

an'anlari tarzida Xiva xonligida davom etib kelgan. Zardo'zlik san'atini o'rganish uchun ustaga shogird bo'lib tushishib, uning uyida istiqomat qilishgan. Usta shogirdlariga hunar o'rgatishdan tashqari uni oziq –ovqat bilan taminlagan . SHogirdga darxol kasb o'rgatilmagan . SHogird bir yilgacha ustaning uyida har xil uy yumushlariga qarashgan, suv tashigan , supurib –sidirgan , bozorga borib narsalar xarid qilib kelgan , tikuvchilarga yordam berib yurgan . Bir yildan so'ng unga oddiy tikish sirlarini o'rgata boshlagan . Kasb o'rgatish bepul bo'lgan , bundan tashqari usta bilan ota-ona o'rtasida yozma shartnoma bo'lmagan . Shogirdga mablag' to'lash shart bo'lmagan , hunar o'rgatish muddati ham cheklanmagan . Zardo'zlik ta'limini o'rgatish muddati ham cheklanmagan . Serquyosh O'zbekistonimizga tashrif buyurgan har bir sayyoh Sharqning go'zal xotin-qizlariga qarab ularning haqiqiy san'at ustida ish olib borayotganlariga tasanno aytadi. Zardo'zlik kiyimlari hozirgi kunda xotin-qizlarning milliy kiyimiga aylanib bormoqda. Nafosatga boy o'zbek xotin-qizlari chinakam mehnat qilib, nodir asarlar yaratib zardo'zlik san'atining xazinasiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Xiva pichoqchilik maktabi hali ham o'z an'analarini davom ettirib kelmoqda . Xozirda Xivalik ustalarimizning XIX – XX asrlarda ishlagan pichoqlari mamlakatimizning turli muzeylarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan . Bu pichoqchi ustalarning ishlarini ko'rar ekanmiz, pichoq ustalarining nozikligi , bezakdorligi hamda metallni moxirona qayta ishlanganligini ko'ramiz . Ular pichoqlarining tig'i yuzining nozik islmiy naqshlar bilan bezatilganligini ko'ramiz . Xiva pichoqchilik maktabiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Otajon Madraimov . U o'zining ijodiy merosini o'g'li Madraim Otajonovga qoldirgan . Madraim Otajonov mamlakatimiz xalq amaliy san'ati ustalari uyushmasida ishlab ajoyib guldor pichoqlar ishlab xalqqa tanilgan . U Xiva hunarmandchiligi an'analarini davom ettirib kelmoqda . Xiva pichoqlari guldor bo'lib qini o'ymakor naqshli mis va jez qoplamalar bilan bezatilgan .

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm kandakorligining buyumlari shakli , naqshi hamda nomlanishi jihatidan o'ziga xosdir .Xiva kandakorlari

chizma usulini faqat pardoqlashda qo'llaydilar. Shabakani juda kam qo'llaydilar. Ular medaleon bilan bezashni mis idishlarning kaft, ba'zan bo'yinning yuqori qismida qo'llaganlar. Xorazm san'ati oddiy bo'lsada, ta'sirchanligi bilan kishini hayratga soladi. XX asrning boshlarida Xorazm kandakorlari naqsh zaminini qora yoki qizil lak bilan bo'yaydilar. Kandakor ustalar asosan o'simlik naqshlarini juda ko'p qo'llaydilar. Ularda aylanma islami naqshi ommaviy hisoblanadi. Ular islami, murakkab islami, madoxili, murakkab aylanma islami va boshqa naqshlar bilan bezaydilar. Kandakorlikning geometrik chetan yoki katak naqshlari o'ziga xos tabiiydir. Naqqosh Abdulla Boltayev xalq amaliy san'ati ustalariga naqsh kompozitsiyalarini chizib bergan. Xorazm kandakorlik maktabining vakillaridan Muhammadpano, Hudoybergan Matchonov, Sobirjon, Yusuf va Matpano Hudoyberganovlar, Matyoqub Jonibekov, Hojiniyoz Saidniyozov, Bekjon Yoqubov, Otajon Madraximov va boshqalar shular jumlasidandir. Xiva naqqoshlik maktabi o'ziga xos bo'lib, Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Rangi jihatidan kelsak, naqshlarning umumiy rangi ko'pincha havorang kaloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsada, o'ziga xos ko'rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatiladi. Xorazm naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoq berishni yaxshi ko'rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qaraganda, asosan novda spiralsimon aylanib- aylanib murakkab naqshlar xosil qiladi. Islimiy naqsh kompozitsiyada novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat gul, oddiy oyguldan tashlik topadi. Bu islamiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablaridan asosan naqshlarning dinamikaviyligi bilan farq qiladi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi grixlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islamiy naqsh ishlatiladi. Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islamiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik maktabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Insonlar tomonidan yaratilgan qadimiy hunarlardan biri to'qimachilikdir.

Uning tarixi yangi tosh davridan boshlangan. To'qimachilik haqida o'rta asrlarga oid ma'lumotlar keng tarqalgan. Arxeologik manbalardan tashqari tarixchilar va sayyohlar o'z asarlarida yozib qoldirganlar, shuningdek o'rta asrlarga oid turli xil hujjatlarda ko'plab ma'lumotlar saqlangan. Har bir hudud to'qimachiligi o'z xususiyatlariga ega. To'qimachilik sertarmoq soha hisoblanadi, u nimadan to'qishiga yoki nima to'qishiga qarab ixtisoslashgan. To'quv materiali sifatida asosan paxta, ipak va jundan foydalanganlar. Bulardan tashqari juda ko'p o'simliklardan (zig'ir, kanop) ip olingan. Ipakdan to'qilgan matolar yuqori baholangan va "Buyuk Ipak" yo'li orqali dunyoga tarqalgan. Xorazmda XVI-XX asr boshlarida to'qimachilik yangi bosqichga ko'tarilgan²⁷. Bu davr Xorazm to'qimachiligini ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin: o'z ehtiyoji uchun to'qish va sotish uchun to'qish. Bunday bo'lishimizning sababi o'troq aholi ham, ko'chmanchi aholi ham to'qimachilik bilan shug'ullangan va imkoni doirasida natural shaklda o'zlarini mahsulot bilan ta'minlaganlar. Bozor uchun asosan bo'z, olacha, shoyi, adras, duxobo kabi tovarlar chiqarilgan.

1.2 Xorazm zargarlik tarixi va zargarlik ashyolari.

O'zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik manbalardan ma'lumki zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin²⁸. Tosh asrining so'ngi davri neolitdayoq (eramizgacha IV-III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlar, har xil toshlar, chig'anoq hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikning rivojlanganligidan dalolat beradi. IV-V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi

²⁷ Ahmedov B. A. O'zbekiston tarixi manbalari. -Toshkent 2001, B 164.

²⁸ Булатов С. Ўзбекистон санъати тарихи". Тошкент, 1991. – Б. 21.

munchoqlar topilgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a devorlaridagi tasvirlardan o'sha davrlardagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanlari ma'lum (III asrga taalluqli). Bundan tashqari bronzadan quyib ishlangan osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu taqinchoqlar I-IV asrlarga mansub bo'lib Ayozaqal'a, Yetti asar, Burgut qal'a va boshqa joylardan topilgan. O'zbek zargarlik san'ati taraqqiyoti Osiyo va Sharq mamlakati xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo'shni mamlakatlar tarixi bilan chambarchas bog'liq. Miloddan avvalgi I-III asrlar mobaynida hukm surgan Ahamoniylar sulolasiga mansub Amudaryo xazinasidagi (Angliyada saqlanayotgan) zargarlik buyumlari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Bunda biz kuch quvvatga to'la, pishqirib o'zini qo'yarga joy topolmay turgan chiroyli, kelishgan yirtqich qiyofasini yaratgan Saklarning "Yovvoyi uslubi" izlarini kuzatishimiz mumkin. Qo'llariga gul va qush tutib turgan Anaxita tasviri tushirilgan bo'lib, u yoki bu davrda yashagan xalqlarning badiiy nafosat haqidagi tushunchalarni belgilab bergan. Xazina chiqqan idishlarda tasvir etilgan zeb-ziynatlar o'rtasida trunj va shkolasi bor keng tilla xalqalar ancha oldin vujudga kelgan. Hukmdor va saroy ayollari boshlarida dabdabali sulton (jigataqib yurganlar. Hokimiyat boshlig'ining ramzi toj bo'lib. U huddi taxt singari, avloddan avlodga meros qoldirganlar²⁹. XV asr boshida boy ayollarning bosh kiyimi haqida, Ispaniyadan kelgan elchi Ryui Gansales de Klavixo batafsil to'xtaladi:" Ayollar boshidagi qizil kiyim xuddi dubulg'aga o'xshaydi, bu dubulg'a juda baland bo'lib unda durlar, yoqut va feruzalar, yana turli tuman toshlar ko'zga tashlanadi. Undan yuqoriroqda tilladan qilingan chamber ham bor unga ham tosh va durlar qadab zeb berilgan edi. Dubulg'aning ustida ko'shksimon soyabon bo'lib unga har ikki enlik keladigan 3 ta yoqut qadab qo'yilgan, tepada oq sulton bo'lib, undan bir-biriga zar ip bilan bog'lab qo'yilgan uchlarida tosh va durlar yarqirab turgan qush patlari ko'zgacha osilib turgani"³⁰ ni eslaydi. Mazkur bosh kiyim biroz o'gargan holda XIX asrgacha iste'molda bo'lgan. XVII asrlarga kelib zargarlik buyumlarining

²⁹ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968.

³⁰ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Тошкент. Mehnat, 1992. –Б. 65.

naqsh bezagi judayam murakkablashib bordi Zargarlik buyumlari oltin, kumush va rangli metallardan ishlandi. Qurol aslahalar ajaoyib qimmatbaho toshlar bilan bezatildi. XIX va XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik san'ati ham tez suratlar bilan rivojlandi. Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon shaharlari XIX asr zargarlik san'atining eng yirik markazlari hisoblangan. Tarixiy manbalarga qaraganda Xivada 1860 yilda XIX asrning oxiri va XX asrning boshida 60 ta zargarlik do'konlari faoliyat ko'rsatgan³¹. Har bir zargarlik markazi o'zining shakl va bezaklar bilan ajralib turuvchi, o'sha joy uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega zeb – ziynat buyumlarni ishlab chiqargan boshqa hunarmandchilik singari zargarlar ham oqsoqol “Qalandar” tomonidan nazorat qilingan. Zargarlik kasbi og'il farzandga meros bo'lgan, ota kasbidan yuz o'girish og'il uchun ko'rnamaklik, shakkoklik sanalgan. Zargarlarga ko'pincha ularning xotinlar va qizlari ko'maklashgan. Ba'zi ustalar turli xil ziynat buyumlari yasaganlar, ba'zilar faqat bir xildagi ziynat buyumlarini yasashga o'rganganlar. XIX-XX asrlarda tilla, kumush, brinch, mis, qimmatbaho toshlar, shishadan zeb-ziynat buyumlari yasalgan. Tilla asosan buyumlarga tilla suvi yuritishda foydalanilgan. Zeb-ziynat buyumlarini tayyorlashda zargarlar an'anaviy ishlarni bajarganlar. Naqsh va gullarning jozibador chiqishi uchun ustalar barcha jarayonlarni bir-bir bosib o'tganlar: madanni quyish, toblash , kandakorlik, naqsh tushirish , qoralash, oqlash, toshlarni qadab chiqish, ingichka simlardan nafis turlar yasash, qadama naqshlar yasash, tilla suvi yugurtirish shu bosqichlardan o'tgandan keyin tayyorlangan nafis buyum, shu qadar ma'nodor jilvalanadiki go'yo uning bir jozibasiga , o'n joziba qo'shib yuborganday.

XIX asr zargarlik zeb-ziynatlar shakli va bezaklari uchun bir-biriga sira o'xshamagan uslublar; islamiy, girix, samoviy mahluqot asos qilib olingan. Davrlar o'zgarishi mobaynida kishilarning tasavvuridagi naqqoshlik turlari

³¹ Бичурин И. Ўрта Осиёда қадимий даврларда яшаган халқлар туғрисида мақола. 1950. –Б. 35.

ham o'zgarib bordi, ko'xna san'ati shakllandi. Zargar ustalar zargarlikning eng yaxshi qadimiy ananalari va boy tajribalari samarali foydalanib, keyingi davr avlod didiga mos, nafis zargarlik buyumlarini ko'plab ishlab chiqarishdi. Bosh, peshona, chakka, ensa, soch, quloq, bo'yin, ko'krak, qo'ltiq, bel, qo'l, oyoq va burunga mo'jallangan zeb-ziynat buyumlari birgalikda hammasining badiiy ramziylik manosini ochib beruvchi yaxlit ansamblni tashkil etadi. Bularning hammasi kelin-kuyovlar libosini to'ldirib, xonadonda to'y, bayram va boshqa marosimlarda taqiladi. Zargarlik buyumlarning cheksiz xilma-xilligi kishini hayratda qoldiradi. Zargarlik zeb-ziynatlar bilan bezatilgan bosh kiyimi to'y liboslari ichida eng asosiy hisoblangan va onadan qiziga meros qilib berilgan³². Boshqa zargarlik buyumlarida bo'lgani singari taxyodo'zlikdan ham turli rangdagi tosh va shishalar ishlatiladi. XIX-XX asrlarda bosh kiyimlarga hokimlar jiga taqib yurishgan. Keyinchalik esa boy va badavlat erkak va ayollar ham jiga taqishgan. To'y kuni o'zini bir kunlik shox deb bilgan kuyov bosh kiyimi jigasiz bo'lmagan. Bu davrlarda hatto xon otiga ham jiga taqilardi. Toj ham jiga ham taxyado'zi ham bir tutam parranda pati qadab qo'yishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Qush va parrandalarni muqaddas hisoblashgan³³. U odamlarni muhofaza va himoya qilgan, qadim zamonlardan beri uning timsoli xaloskorlik ramzi bo'lib, hukmdorlik uchun esa shoxlik ramzi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qushboshi shaklidagi Xorazm dubulg'alari (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) va tojlari (eramizning III asri) diqqatga sazovordir. Juda qadim zamonlardan XX asrgacha yashab kelgan qush, zuldir, girix va boshqa ko'rinishdagi ayollar boshiga taqadigan to'g'nog'ichlar yasaliish uslubi bilan jigaga yaqin turadi. Naycha ko'rinishidagi "parxona" deb atalgan yana bir to'g'nog'ich Xorazmda saqlanib qolgan³⁴. O'z navbatida boshqa zeb-ziynat buyumlari singari "sochpopuk" soch bezak turlaridan biri hisoblanadi Manglay

³² Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. –Б. 67.

³³ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. –Б. 77.

³⁴ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991.-Б. 55.

va chakkaga taqiladigan Xorazm ziynat buyumlaridan manglaydo'ziy, bodomoy, osmado'zilarining naqshlar ustiga rangli toshlar va shishalardan donachalar qo'yib bezatiladi. Ba'zan shisha o'rniga uzoqdan durga o'xshab ko'rinuvchi yirik sadaf chig'anog'ini qadab qo'yganlar, ko'pincha bunday chig'anoqlarga duolar bitilgan qog'ozlar saqlaydigan mitti g'ilof vazifasini bajargan. Shunday g'ilofchalar kichik hajmdagilarini duoduzi deb ham ataganlar, u tumor qilib chakkalarga, ko'krakga ,yosh bolalarning beliga taqilgan. "Qush ini", " Xorazm taqinchog'i" juda ko'rkam jilvalanadi. Taqinchoq taxtining markazida va yonida patlar qistirib qo'yadigan naychalardan uch tishli panshaxa nusxasi tushirilgan, ularning oralarida esa er xotinlik ramzi sifatida ichiga bir juft qush tasviri tushirilgan haykallar o'rnatilgan. "Butuntirnoq" va "Yarimtirnoq" degan chakka, quloq taqinchoqlar o'zlarining yirik va murakkab ko'rinishlari bilan ajralib turadi. " Shavkala " nomli ko'krak bezagi Xorazmda saqlanib qolgan . U xalqasimon sirg'a yoki uch to'rt kat tuzumli chakka baldoqlarga mahkamlangan turli uzunlikdagi 3 marjondan tashkil topgan. Xorazm Amaliy san'at bo'limida har xil shakldagi tumorlar namoishga qo'yilgan. Tumorlar turli xil bo'lgan: bo'yin tumor, ko'krak tumor, qo'ltiq tumor, bulardan tashqari bosh kiyimga, chakkaga, belga, yelkaga taqiladigan xillari bo'lgan. Ularning ichiga duo yozilgan , yoki qaytarmalar bitilgan qog'oz solib qo'yiladigan qopqoqli kumush maxsus g'ilofchasi bo'lgan. Qadimdan taqib yurishdan maqsad ham bezak, ham ramziy ma'noda, uni taqqan kishi omadli, turli ofat, balo qazolardan, yomon ko'zdan saqlaydigan narsa deb tushunilgan³⁵. Yirik-yirik xashamdor tuka va xalqalar erkaklarning kamarini, undan ancha maydalari ayollarning kamarini bezashda qo'llanilgan. Quyosh gardishi shaklidagi tuka va xakqalarga, oy baldoqlarga o'yma naqshlar chizilib , nozik sim , to'kima gullari yopishtirib, qimmatbaho toshlar qadab jilo berilgan. Kamarlar ham taqinchoqlar majmuasidan o'rin olgan. Teridan qilingan keng po'stinlarni bejirim tutib yurish zaruriyati orqali kamar taqish kelib chiqqanligi barchaga ma'lum.

³⁵ Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2 тахрир. Тошкент, 1987-2001. –Б. 43.

Keyinchalik kamar hokimyat ramzi, sharaf, daraja belgisi kabi boshqa ma'nolar ham kasb etib, zaruriy libosga aylangan va davlat xizmatchilari libosining bir qismi bo'lib qolgan.

Zargarlikda ishlatiladigan materiallar asosan quyidagilardan iborat: XVIII asrda zargarlikda asosiy material tilla, kumush, har xil qotishmalar, bronza, chaqmoq tosh va rangli toshlar ishlatilgan. Eng ko'p ishlatiladigan narsa oltin va kumushdir³⁶. XIX asrga kelib zargarlikda oltin ishlatish ko'paydi. Zargarlik ishlarida chaqmoq toshlar, rangli toshlar va dengiz tuxfalari ishlatilar edi. Umuman olganda ularni hammasi javohirlar deb yuritiladi. Javohirlar zargarlikda qimmatbaho tosh hisoblanadi. Ular chiroyliligi, rangining tiniqligi, bir xilligi, yaltiroqligi, tovlanishi, qattiqligi, turli rangda o'zgarishi va boshqa xususiyatlarga ega. Ular 3 darajaga bo'linadi : Birinchi darajali qimmatbaho toshlarga olmos, sapfir, zumrad, yoqut, aleksandrit, shpinel, evklaz, oltin, platina, marvarid .Ikkinchi darajali qimmatbaho toshlarga akvamarn, topaz, vorobevit, geliodor, qizil turmalin, demantoid, ametist, pirop, almendin, sirkon, opal uvarovit. Uchinchi darajali qimmatbaho toshlarga nefrit, yoqutlar, feruza, kordierit, gagat, qahrabo, malaxit, kianit, epidot, billur, sitrin, xaltsedon, agat, aqiq, serdolik, prenit, lojuvard, flyuorit, andaluzit, deopsid va boshqalar kiradi³⁷.Ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

Zarxal— xal turi; ezib suyultirilgan oltin kukuni. Amaliy san'at (ayniqsa zargarlik)da narsa (buyum) larning yuzasiga surtiladi (yugurtiraladi) va aynan shunday usulda ishlangan buyum ham zarxal deb ataladi (masalan, yuziga zarxal yugurtirilgan kumush isirg'a— zarxal isirg'a)³⁸.

Zig'irak—zargarlik bezak yaratish usuli. Isirg'a (jumladan qashqarboldoq) panjarasi oralig'iga, uzuk va boshqalarda bezak xosil qilib o'rnatiladigan tilla yoki kumushdan ishlangan mayda dumaloq donachalar.

Ziynat toshlari- san'at buyumlari (vaza, quticha, qadama naqsh va boshqa.) va zebe-ziynatlar (uzuk, isirg'a, to'g'nog'ich va boshqa.) tayyorlanadigan rangli

³⁶ Ахмеров К. Жавохирлар оламида. Ташкент: Мехнат, 1992. –Б. 176.

³⁷ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарк, 2005. – Б. 58.

³⁸ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 ҳарфи. –Б. 90.

mineral va tog' jinslari. Ziynat toshlari qiymatiga ko'ra, 3 sinfga bo'linadi: birinchi sinfga nefrit, lojuvard, sodalit, rodonit, malaxit, avantyurin va boshqa.; ikkinchiga— lepidolit, serpentin, obsidian, diatomit, flyuorit, qaxrabo va boshqa.; uchinchiga— tosh tuzi, gips, marmar, angidrit, porfirlar va boshqalar kiradi. Agat, qaxrabo va ba'zi bir boshqa minerallarning yaxshi turlari qimmatbaxo toshlar xisoblanadi.

Olmos (grekcha "adamas" - engilmas) — kristall ko'rinishida, grafitdan tashkil topgan. Odatda, kristallar oktaedra shaklida bo'lib, rangsiz, ko'pincha sarg'ishroq, zangariroq, ko'kish va boshqa ranglarda tovlanishi mumkin³⁹. Rangli olmoslar juda kam uchraydi, qora rangdagisi esa deyarli uchramaydi. olmoslardan ramisapn loyqa va nur o'tkazmaydigan olmoslar ham uchraydi. Tiniq krisstalli olmoslarda turli o'yiqli burchaklar va darzlar bo'lishi mumkin, bu uning narxini pasayishiga olib keladi. Bu materiallar orasida eng kattasi hisoblanadi. Yirik toza krisstallar juda kam uchraydi va juda katta bahoda baholanadi. 10 karatli (1 karat - 0,2g) olmos katta hisoblanadi, 100 karatli olmoslar esa, olmos qazib olinayotgandan beri, bir necha dona topilgan xolos. Yirik olmoslar turli nomlar bilan nomlangan (masalan, eng katta olmos - "Kuxinur" Janubiy Afrikada 1905 yilda topilgan bo'lib, 3106 karatli).

Brilliant - qirralangan olmos. Tosh qirralangandan so'ng, unda nurlar yoqimli va go'zal kamalakning xamma nurini o'zida qamrab jilolanadi. Brilliantlar og'irligi bo'yicha: mayda - 0,5 karatgacha, o'rta 0,5-1,0 karatli va yirik 1 karatdan katta guruhlarga bo'linadi. Mayda va juda mayda toshlar atirgul yoki hoshiyali qirralanadi, qolganlarining xammasi brilliantli qirralanadi⁴⁰.

Yoqut — kristallangan alyumin oksidi (glinozem) yoki qizil rangdagi korund. U pushti rangdan turlicha ko'rinishdagi tiniq qizil ranglarda tovlanadi. Yoqutning yaltirashi olmosdan shisha ko'rinishigacha bo'lishi mumkin. Yoqut—la'l, ruscha rubin. Zargarlikda ishlatiladigan chaqnoq toshlar

³⁹ Юнусхўжаев Т.Т.Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 62.

⁴⁰ Ахмеров К. Жавоҳирлар оламида. Ташкент: Меҳнат. 1992. – Б. 176.

turiga kiradi. Tilla taqinchoqlarda juda keng qo'llaniladi⁴¹.

Yantar—za'far yoki ja'far sehrgar tosh, tabiatda g'orlarda topiladi. Bu toshni bo'yinda osib yurilsa, jangda g'olib bo'lishadi, agarda chayon yoki ilon chaqib olsa o'sha joyga shu toshni qo'ysa, og'riqni o'sha zahoti to'xtatadi va tez tuzatadi. Zargarlikda zargarlik buyumlarini ishlashda foydalaniladi.

Marvarid— ruscha- “ zemchug” dumaloq noaniq shaklli donacha, tuguncha. Marvrid - kalstiy karbonatining qattiq birikmasi. Marvaridning shakli, mollyuskalik vaqtida tarkibiga joylashgan begona jismning shakliga bogliq bo'lib, bu jismning atrofiga sadaf qoplanadi. Bunday mollyuskalarning turi 30 xildan ortiqdir. Bularning ichida sharsimon ko'rinishdagi shakllangan marvaridlar eng qimmatbaho hisoblanadi. Marvaridning kattaligi 15 millimetrga etishi mumkin. Bundan katta marvaridlar juda kam uchraydi. Londondagi muzeyda 45 millimetrli, og'irligi 85 g bo'lgan marvarid saqlanadi. Marvaridning rangi odatda oq bo'lib, sarg'ish yoki zangori tovlanadi, ba'zan esa sariq, kulrang, pushti, qizil, jigarrang, qora ranglardagi va juda kam hollarda yashil va zangori ranglardagisi uchrashi mumkin. Marvarid yaxshi sharoitda 150 yilgacha yashashi mumkin. “O'lgan” (rangini yo'qotgan) marvaridni ba'zi hollarda tiklasa bo'ladi, buning uchun uning yuqori qismidagi qovjirab qolgan sadaf ehtiyotkorlik bilan olib tashlanadi va bu jarayon “tirik” yaltiroq qatlam ochilguncha davom ettiriladi. Marvaridlar zargarchilikda juda keng qo'llaniladi, ular ko'zxonasiz yoki qimmatbaho metallardan yasalgan ko'zxonalarga va ba'zan brilliant bilan birga o'rnatiladi. Marvarid turlanib chiroyli jilolanganidan zeb-ziynat buyumi hisoblanib, uning yirik xili dur deb ataladi. Sharqda XIX asrda marvarid faqat bezak buyumi bo'lmasdan balki, uning kishilar ruxiyatiga va sog'lig'iga katta foydasi bor deb yuritganlar. Masalan marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni xaydaydi, ko'zning ko'rish qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izdan qo'lansa xidlarni yo'qotadi. Oshqozon,

⁴¹ Ҳасанов Р. Амалий безак санъати методикаси. Тошкент, 2003.

jigardagi, siydikdagi toshlarni maydalaydi, shamollaganni yo'qotadi, bavoilni va boshqa kasalliklarni tuzatadi⁴².

Dur—xitoy tilidan olingan bo'lib, uni inju deb yuritishadi. U chuchuk suvli dengizlarda yashaydigan chig'anoqlardan topilgan. Dur sharsimon yoki noto'g'ri shakldan iborat bo'lib, turli xil tovlanadi. Uning kattaligi kaplar tuxumidek bo'lganlari eng qimmatbaho hisoblanadi. Dur zargarlikda ishlatiladigan eng qimmatbaho material hisoblanadi.

Sapfir — titan va temir oksidlari ta'sirida ko'k rangga ega korund. Sapfirning tovlanishi och havorangdan turlicha ko'rinishdagi to'q ko'k ranggacha bo'lishi mumkin. Lekin sariq va yashil sapfir ham uchraydi. Rangsiz korundlar, "oq sapfir" yoki "sharqiy olmos" deb ataladi. Sapfir juda qattiq, olmos singari yaltiroq. Sapfir bir qancha ko'rinishlarda - brilliantli, pog'onali, agarda rangi juda quyuq bo'lsa - qubba ko'rinishda qirralanadi. Oltin taqinchoqlarga o'rnatiladi.

Zumrad (yunoncha. smaradgos) — mineral, bershining to'q yashil turi. Chiroyli tovlanishi, yaxshi jilolanishi, shaffofligi, kristall shaklining chiroyliligi bilan qimmatbaho toshlar ichida birinchi darajali xisoblanadi. zumradning darz ketmagan shaffof, massasi 5 karatdan ortiq bo'lgan xili, shunga teng bo'lgan olmosdan qimmatroq turadi. Zumradning konlari kam. Asosiy konlari Rossiya (Ural), JAR (Transvaal), Kolumbiya (Muso) da bor. Zumraddandan qimmatbaho taqinchoqlar va bezaklar tayyorlanadi. Zumrad — maysa singari chiroyli yashil rangga ega. Zumrad qadim zamonlardan qo'llanib kelinayotgan tosh bo'lib, ko'p hollarda brilliant bilan birga taqinchoqlarga o'rnatiladi⁴³.

Akvamarin (lotincha - dengiz suvi) — tosh juda tiniq, kuchli shisha singari yaltiroq, mo'rt. Uning rangi sezilarsiz havo rangdan quyuq

⁴² Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 65.

⁴³ Ахмеров Қ. Жавоҳирлар оламида. Ташкент: Меҳнат 1992. –Б. 179.

yashilhavo ranggacha o'zgarishi mumkin. Kimyoviy chidamli. Qirralangan akvamarinda nur ajoyib tovlanadi, odatda ular brilliant ko'rinishida tayyorlanadi. Zargarchilikda qadim zamonlardan qo'llanilgan va turli taqinchoqlarga o'rnatiladi.

Aleksandrit (xrizoberill) — berill va alyuminiynining murakkab oksidi. Juda chiroyli yaltiroq, tovlanish, rangini o'zgartirish xususiyatiga ega: kunduzi to'q-yashil, kechqurun to'q-qizil. Aleksandrit tiniq shisha singari yaltiroqlikka ega, juda qattiq. Aleksandrit kam uchrashi va uzining maxsus xossalari sababli yuqori baholanadi. Oltin va kumush taqinchoqlarga o'rnatiladi. Olivin - yashil- zaytun (olivka) rangiga atab nomlangan. Mineral sarg'ish va sarg'ish -yashil rangda, tiniq yorug'lik o'tkazuvchan, shishasimon kuchli yaltirashga ega. Zargarchilikda asosan, mayda qirralangan toshlar qo'llaniladi. Qirralangan olivine yorug'lik ta'sirida ajoyib, olmos singari tovlanadi.

Xrizolit (grekcha, ma'nosi - "oltintosh") - olivinining bir turi bo'lib, oltinsimon, yashil rangga ega. Oltindan yasalgan zargarlik mahsulotlariga qo'yiladi.

Uvarovit - xromli -oxakli anor tosh. Xromning borligi hisobiga yashil-zumrad va to'q – yashil rangda bo'ladi. Oltindan tayyorlangan taqinchoqlarda ishlatiladi.

Demantoid (olmossimon) — chiroyli yashil rangdagi anor- tosh turkumi, tiniq yorug'lik o'kazuvchan , ko'pincha ural xrizoliti deb ataladi. U ranglarning jilosi bo'yicha , boshqa yaltiroq toshlarning ichida eng yuqori o'rinda turadi. Anor toshlarning ichida eng yumshog'i. Brilliant ko'rinishida qirralangan demantoid juda kamyob yashil brilliant singari tovlanadi.

Giastint – to'q sariq, sariq, oltinsimon-jigarrangrangga ega bo'lishi mumkin. Tiniq yorug'lik o'tkazuvchan, olmos singari tovlanadi, og'ir, nurni sindirish ko'rsatkichi yuqori. Qimmatbaxo metallardan tayyorlangan taqinchoqlarga o'rnatiladi.

Topaz.- nomlanishi birinchi topilgan joy sharafiga (Qizil dengizdagi Topaznos oroli) qo'yilgan. Ftorselikat alyumindan tashkil topadi. Topazlar

rangsiz, sariq musallas, somon singari sariq bo'lishi mumkin. Yorqin ko'k, zangori, yashil va pushti rangli topazlar kamyob hisoblanadi. Oltin va kumushdan tayyorlangan taqinchoqlarga o'rnatiladi.

Xalsedon— u marmar dengizi qirg'og'idan qadimgi Xalkedon shahri nomidan olingan bo'lib rangi oq, kulrang, havorang, sariq, ko'k, qizg'ish - qo'ng'ir bo'ladi . Uning dog'-dog' yoki yo'l –yo'l turlari ko'p. U abraziv materiallar sifatida, soat toshlari tayyorlashda hamda zargarlik buyumlari tayyorlashda ishlatiladi. Xalsedon chaqmoqtoshning bir turi bo'lib, qadimda zeb-ziynatlar yasaladigan toshlar hisoblangan .Unga ishlov berish oson bo'lib, asrlar mobaynida xizmat qilgan. Ustalar marjonlar , tog'nag'ichlar, uzuk, bilaguzuk, zebigardonlar asl san'at durdonalari yaratib kelmoqdalar. Bu toshning to'q sariq va sarg'ish- qizg'ish rangdaligi muhabbat ramzi, erkaklar qalbini ayollarga bog'laydigan tosh deb hisoblangan. Bu tosh go'yo odamlarni qahr -g'azab va qayg'u anduhdan asraydi deyдилar.

Feruza — (forscha- tojikcha) mineral degan ma'noni anglatadi. U jilosiz mumga o'xshash , xira bo'ladi. Feruza zangori, havorang yoki yashil-havorang bo'ladi. Uning Nishopur (Eron) da, O'rta Osiyo hamda Qozog'istonda eng yirik konlari bor. Feruza konlari Markaziy Qizilqum hamda Qurama tog'larida bor. Dunyoda eng yaxshi feruza koni Nishopur feruzasi bo'lib, u nihoyatda sifatlidir. Eramizning IX asriga oid feruzadan yasalgan qumg'on saqlangan . Markaziy Qizilqum feruzasini musulmon mamlakatlari nihoyatda qadrlaganlar, chunki bu tosh qudratli tumor sifatida oshqozon va ko'z kasalligiga, ilon chaqqanda eng yaxshi shifo hisoblangan.

Aqiq— ruscha agat, grekcha oniks so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda “ tirnoq” deganidir. Bu mineral zargarlikda, sanoatda va boshqa joylarda ishlatiladigan javohir turlaridan biri. U qadimgi Misr, Ossuriya, Bobilda ham bezak materialli sifatida ma'lum. Ba'zi bir afsonalarga ko'ra Qadimgi Gretsiyada aqiqdan ibodatxonalar qurilgan, chunki derazasiz, tuynuksiz ibodatxonaga kirgan kishi uning nurofshonligi hamda kengligidan hayratda qolgan. Aqiqdan masalan, O'zbekistonning Samarqand shahridagi

Go'ri Amir maqbarasini ichki xonalari bezagi yasalgan⁴⁴.

Safsar— zargarlikda ishlatiladigan qimmatbaho tosh. Undan marjon, to'g'nag'ich, tugmalar va baldoqlar yasaladi. U Sharqda ham , Yevropada ham yuqori baholangan , chunki uni oshiqlar mahbubasiga sovg'a qilgan. U sepkillar hamda ajinlardan asraydi, zehnni ravshan va bardam qiladi. Har xil yomonliklarni yo'latmaydi. Shuning uchun safsarni qazib olish yanada kuchaydi.

Undan tashqari yanada yorqinroq toshlar ham zargarlik san'atida qo'llaniladi bunday toshlarga quyidagilar kiradi:

Qahrabo (yantar) - turli jonzot hamda moddalarning chiqindilari qotishi natijasida hosil bo'lgan amorf materialdir. Bu chiqindilarga: Hayvonning qolgan chiqindilari, o'rmon chumolilari, kitdan ajralib chiqqan modda, toshqotgan asal hamda quyosh nuri ta'sirida dengizlar ko'pigidan hosil bo'lgan birikma kiradi. Qahraboning kimyoviy tarkibining har xilligi va murakkabligi uning turli mahsulotlardan hosil bo'lganligiga dalil bo'la oladi. Qahrabo och (limon rangiga oxshash), qo'ng'ir sariq, tiniq asal rangida, olcharang va qizil yoqut rangida tovlanadi. Oqish- marvaridsimon qoramtir-qizg'ish, mumrang va boshqa ko'rinishdagi xillari ham ma'lum. Hozirgacha uning ikki yuz turi topilgan bo'lib, ular turli-tumanligi bilan farqlanadi. Taqinchoqlarda qahrabo kumush, oltin hamda qimmatbaho bo'lmagan metall bilan yoki metallsiz qo'llanishi mumkin. Badiiy yasama toshlar maqsadida ham qo'llaniladi.

Marjon (korall) - bu dengiz tubida hosil bo'lgan va kalstiy karbonati, temir oksidi hamda organik moddalardan tashkil topgan birikmadir. Marjonlar qizil, oq, ba'zan zangori, och- pushti, qizil va kamdan-kam qora rangli xillari ham bo'lishi mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan marjonlar pushti rangda bo'ladi. Marjon turli tasvirlar hosil etish maqsadida badiiy buyumlarda yasama

⁴⁴ Малышев В.М., Румянцев Д.В. Золота. Москва: Металлургия, 1979 г. - с. 288

va zargarlik taqinchoqlarda metallga o'natib yoki metallsiz qo'llanishi mumkin⁴⁵.

Gagat (Kichik Osiyodagi daryo nomi bilan ataladi) -qora, jigarrang qora, silliqlanganda yaltirab turadigan tosh ko'mirning bir turi. Yorug'lik o'tkazmaydi, xira mumsimon yarqiraydi, engil ishlov berish va jilolash mumkin. Mikroskop ostida kuzatilsa, yog'och qoldiqlaridan tuzilganligi aniqlash mumkin. Issiqlik ta'sirida alangalanishi mumkin. Badiiy buyumlarda chiroyli yasama tosh sifatida keng qo'llaniladi.

Yashma (arabcha, "yashb") - xalsedon va kvarst birikmasi. Bir bo'lagi bir necha xil jilolanuvchi rangda bo'lishi mumkin. Odatda yashma tiniq qizil, qo'ng'ir qizil, jigarrang, sariq, pushti, zangori, qora, yashil, kulrang va oq bo'lishi mumkin. Bir bo'lakda bir qancha ranglarning uchrashi toshning ajoyib tovlanishini ta'minlaydi. Ranglarning joylashishi bo'yicha yashmalar bir xil rangli yoki ko'p xil rangli deyiladi. Yashmalar yassi ko'rinishda qirralanib, kumush yoki qimmatbaho bo'lmagan metallardan tayyorlangan taqinchoqlarda, mayda badiiy va yirik pardozlash mahsulotlarida qo'llaniladi⁴⁶.

Opallar (Qadimgi sanskrit tilida: "upala" - qimmatbaho tosh) - amorf (kristallanmagan) 1- 4% kremnazem shaklida, o'zgaruvchan, tarkibida suv bor. Opalning rangi tarkibidagi turli ranglarning yorug'lik ta'sirida o'ynashiga bog'liq bo'ladi. Suvda yaxshi saqlanadi. Opalning turlari ko'p bo'lganiga qaramay, zargarchilikda ba'zilar qo'llaniladi.

Gialit - shishasifat, rangsiz, tiniq yorug'lik o'tkazuvchi opal. Opallar qubba ko'rinishida tayyorlanadi. Oltin buyumlarda ko'pincha brilliant bilan birga qo'llaniladi⁴⁷.

Odnolit (suyaksimon feruza) - qazib olinadigan suyak va tish qoldiqlari, zangori rangda tovlanadi. Feruzani faqat qubballi tayyorlanadi yoki murakkab shaklida qoldirib, shunchaki jilolanadi. Oltin va kumush taqinchoqlarda

⁴⁵ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарк, 2005. –Б. 61.

⁴⁶ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарк, 2005. –Б. 77.

⁴⁷ www.ziyouz.com. kutubxonasi

qo'llanadi. Ko'zxonasiz taqinchoqlar (tumorlar, ziraklar) ham tayyorlanadi.

Nefrit— bu kalstiy, magniy va temir silikati. Ochiq kristall, mayin tolali tuzilishga ega. Turli ranglarda sut singari oqdan yashil ranggacha uchrashi mumkin. Ko'pincha, qora va qizil anglardagi dog'lardan iborat bo'lishi mumkin. Nefrit va jadent qubba ko'rinishida tayyorlanadi. Ular ko'pincha kumush va qimmatbaho bo'lmagan metallardan tayyorlangan taqinchoqlarga qo'yiladi. Badiiy yasama toshlar sifatida keng qo'llaniladi.

Malaxit - misning suvdagi karbonat angidrit tuzi, deyarli 80% mis oksidi, amorf tuzilishga ega. Malaxitning rangi turlicha: och yashildan yashilgacha, ya'ni qora tusgacha uchrashi mumkin. Feruza singari jilolanuvchi malaxitlar ham uchraydi. Malaxit kesilganda chiroyli tasvirlar namoyon bo'ladi. Tasvirlarning joylashishi bo'yicha ranglar yo'lakli, to'lqinli Zargarlik mahsulotlari uchun malaxitlar qubba yoki taxta ko'riinishida tayyorlanadi, odatda kumush va kumushga o'xshash materiallarda qo'llaniladi, kamdan-kam oltin taqinchoqlarga o'rnatiladi. Yasama va pardozlovchi toshlar sifatida keng ishlatiladi.

Lazurit (arabcha "lazuard" -lojuvard- moviy tosh) - murakkab kimyoviy tarkibga ega bo'lib, alyumin silikati va metallarning oksidlaridan tashkil topadi. Rangi mayin zangoridan yashil ko'k hamda zangori ko'kgacha uchrashi mumkin. Tarkibida juda chiroyli oltinsifat tovlanuvchi donachalar ham uchraydi. Zargarlik mahsulotlari uchun qubba yoki taxta ko'rinishida tayyorlanadi va kumush hamda qimmatbaho bo'lmagan metallardan tayyorlangan mahsulotlarga quyiladi. Badiiy va pardozlash ishlarida yasama toshlar maqsadida keng qo'llaniladi.

Qimmatbaho toshlar va ularning qotishmalari.

Oltin (Au) - jilolanganda chiroyli sariq rangda tovlanadi. Juda yumshoq bolg'alanuvchan plastik va cho'ziluvchan metall. Zargarlikda toza oltin bilan qimmatbaho qotishmalarning asosiy tarkibi sifatida qo'llaniladi.

Kumush (Ag) – oq rangdagi metall, o'ta cho'ziluvchan plastik va bog'lanuvchan bo'lib yumshoqligi bo'yicha kumush oltin va misning oralig'ida joylashgan.

Kumush kavsharlarni tayyorlashda keng foydalaniladi. Kumush qotishmalari. Zargarlikda qo'llaniladigan kumush qotishmalariga faqatgina bir qo'shimcha ya'ni mis qo'shiladi. Mis qotishmaning qattiqligini oshiradi, plastiklik, bog'lanuvchanlik va cho'ziluvchanlik xususiyatlari o'zgarmasdan qoladi.

Platina (Rt) – og'ir, kulrang-oq, metall, juda cho'ziluvchan, etarli darajada bog'lanuvchan, lekin qattiqligi oltin va kumushdan ancha yuqori. Yuqori fizikaviy-kimëviy xususiyatlarga ega bo'lgan platina kimyoviy, priborsozlik, aviasozlik sanoatlarida keng qo'llaniladi. Zargarchilikda esa asllik darajasi yuqori bo'lgan platina qotishmalarini tayyorlash uchun qo'llaniladi. Platina qotishmalari. Platinaga 5 % mis qo'shilganda qotishmaning erish harorati kamayadi, yumshoqligi, cho'ziluvchanligi va plastikligi saqlanadi.

Palladiy (Rd) – kumush-oq rangdagi metall, yumshoq va bog'lanuvchan, yupqa holatgacha joylanishi va ingichka sim ko'rinishigacha tortilishi mumkin.

Zargarlik sanoatida ba'zi taqinchoqlarning qotishmalarini tayyorlash uchun, oq tillaning tarkibiga xamda asllik darajasi past bo'lgan oltin qotishmalarining Rangdor metallar va ularning qotishmalari.

Mis (Su) – rangi qizg'ish metall bo'lib, yuqori plastiklik, oquvchanlik xususiyatiga ega. Misning issiqlik va elektr o'tkazuvchanlik xossasi yaxshi. Mis ochiq havoda oksidlanadi. Mis azot kislotasida va sulfat kislotasining eritmasida, harorat ortishi engil eriydi. Badiiy ishlab chiqarishda mis zarb etish, filigran, emallanadigan mahsulotlarda qo'llaniladi. Zargarlik sanoatida esa qimmatbaho qotishmalarni legirlash uchun keng foydalaniladi. Misning qotishmalariga, jez, bronza, melxior, neyzilber kiradi.

Jez – mis-rux qotishmasi bo'lib, ruxning miqdori 45 % gacha bo'ladi. Ularda turli arzon taqinchoqlar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Bronza – mis va qalay qotishmasi bo'lib, qalayning miqdori 3-12 % oralig'ida bo'ladi, qalayli bronzalardan tashqari alyuminli, kremniyli, breylliyli, kadmiyli bronzalar ham mavjud.

Melxior – mis-nikel qotishmasi bo'lib, tarkibida 18-20 % oralig'ida nikel bo'ladi. Korroziyaga mustahkamligi yuqori .Melxiorning xususiyatlariga

o'xshash bo'lganligi sababli, melxiordan katta miqdorda oshxona anjomlari va arzon taqinchoqlar tayyorlanadi.

Neyzilber – mis asosidagi uch qo'shimchali qotishma bo'lib, tarkibida misdan tashqari 13,5-16,5 % nikel va 18-20 % rux bo'ladi. Korroziyaga chidamli. Melxior singari, neyzilber ham oshxona anjomlari, arzon taqinchoqlar va filigranli buyumlar uchun keng miqdorda qo'llaniladi.

Rux (Zn) – zangori oq rangli metall, juda mo'rt, 100-150 grdus qizdirilganda plastik holatga o'tadi, engil va cho'ziladi. Rux qimmatbaho qotishmalarning asosan kavshar va ba'zan esa oq tillaning tarkibiga qo'shiladi.

Kadmiy (Kd) – oq rangdagi metall, bog'lanuvchan, qovushqoq, ruxdan yumshoq. Bu metall qizdirilsa, u alangalanadi va quyuq tutun chiqaradi. Kadmiyning bug'lari va tuzlari juda zaharlidir. Kadmiy zargarchilik kavsharlarini xamda tish qoplamalari uchun korroziyaga chidamli qotishmalarni tayyorlashda keng qo'llaniladi.

II. Bob. Xiva xonligida zargarlik sinoati va sanoati

2.1 Xiva xonligidagi zargarlar va zargarlik ustaxonalari faoliyati

Xiva xonligida hunarmandchilik sohasi bo'lmish zargarlik san'atining rivojlanishi asosan usta zargarlarga bog'liq hisoblanadi. Xiva xonligida asosan zargarlar bezak buyumlari tayyorlashda quyish, bolg'alab(zarb berib) yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish) o'yib yoki bo'rttirib naqsh yasash, bosma , zig'irak , sovtkori, qo'lipaki , shabaka kabi usullardan keng foydalanadi⁴⁸. XIX asr oxiri XX asr boshida o'ziga xos ishlanishi , shakli, bezaklari , hususiyatlari bilan bir biridan farq qilgan zargarlik buyumlari keng tarqalgan , ziynat buyumlari to'plamlari vujudga kelgan.XIX-XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G'ijdivon, Marg'ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo'lib, ular maxsus mahalla-mahalla bo'lib yashaganlar. Shuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan⁴⁹. XIX – XX asr boshlarida Xorazmda hunarmandchilik, jumladan, zargarlik tez sur'atlarda rivojlandi. Xivada 1860 yilda 15 dan ziyod zargarlik do'koni ishlab turgan. XX asr boshlarida 1200 hunarmandning 88 nafari zargar edi⁵⁰. Shu davrda shuxrat qozongan ustalardan Matyoqub zargar, Solay zargar, Isfandiyorxon, Otajon Madrimov, Madrim Otajonov nomlarini eslash maqsadga muvofiq⁵¹. Hozirgi davrda ham zargarlik san'atini davom qildirib kelayotgan ustalarning ishlari hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ishlab chiqib, xaridorlarni yanada xushnud etmoqdalar. Xivada 1860-yilda 12 ta va XX asrning boshlarida Buxoroda 400 tagacha, Toshkentda esa 100 dan ortiq, Samarqandda 1893 yili

⁴⁸ Рубрук В. Шаркий ўлкаларга саёҳат. А.И.Малеин таржимаси.1911. –Б. 41.

⁴⁹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиқ тарихи. Тошкент, 2000. –Б. 89.

⁵⁰ Норкулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: Шарқ, 2003. II боб, -Б. 17.

⁵¹ Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. Хива: Хоразм Маъмун Академияси,2010. –Б. 25.

20 dan ortiq zargarlar do'koni bo'lgan. O'sha vaqda katta shuxrat qozongan zargar ustalardan Qo'qonda usta Mahmud, usta Omon xoji, Raximov.M, Najmiddinov.X., Namanganda usta Niyoz Oxun, Andijonda usta Oybergan, Otaboev.H, Toshkentda Bobojonov.S,Bobojonov.O, usta Samig'iddin, Shoislomov A.,ustaMirxalil,Urganchda.AbdullaevM,Samarqandda Yo'ldashev.X, Komilboev.I, Xafizov.I va boshqalar bor edi⁵².

Hozir respublikamizning Andijon, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro va boshqa shaharlarda zargar ustalarimiz bugungi kunda yangi materiallar va shakllarni ishlatish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi qadimiy an'analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Zargarlik va misgarlik san'ati Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarda asosan, xorazmliklar orasida keng tarqlgan bo'lib, ular hamon qo'shiqchilik san'ati kabi misgarlikda ham yetakchilik qiladilar⁵³. Serquyosh o'lkamizda zargarlik san'ati keng tarqalgan ma'naviy boyliklarimiz sirasiga kiradi. Zargarlikni qayta tiklash respublika Madaniyat vazirligining muxim vazifalaridan biridir. Respublika Fanlar Akademiyasi etnografiya, arxeologiya va tarix instituti xodimlari bu borada ko'p ishlarni bajarishmoqda. Ular hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ko'plab ishlab chiqarib, xaridorlarni yanada xushnud etmoqdalar. Asrlar osha avlodddan avlodga o'tib kelayotgan zargarlik san'ati XX asr boshlarida inqirozga yuz tutdi, xalq ustalarining soni qisqara boshladi. Ustalarga qimmatbaxo xom ashyolardan foydalanishga yo'l qo'yilmadi. Zargarlikda ijod qilgan usta zargarlar ish jarayonida asta sekinlik bilan mavjud an'analardan yiroqlasha bordilar. Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakli shamoyili o'zgarib "eklektik" manzarani yuzaga keltirdi va bazi an'analarning butunlay yo'qolishiga olib keldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng zargarlik san'ati jonlandi. Qimmatbaxo metal materiallardan foydalanishga imkon yaratildi. An'anaviy

⁵² Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. Хива: Хоразм Маъмун Академияси. 2010. –Б. 46.

⁵³ Булатов С. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент, 1991. –Б. 24.

zargarlik buyumlari - tumorlar , isirg'alardan " uch ko'zacha " , " oy boldoq " , " erbidoq " , " qashqarbaldoq " va boshqalar yaratildi .

Ustalardan Dadamuhammedovlar sulolasi , G.Yo'ldosheva, I. Olimov , G. Tosheva , SH. Nizomov va boshqalar zargarlik san'atini o'rganish, rivojlantirish va yangi yo'nalishlarni kashf etish borasida qator ishlarni amalga oshirdilar⁵⁴. Buxoro , Xorazm , Surxondaryo va boshqa zargarlik maktablarining ayrim chizgilari birbiriga uyg'unlashtirilib , yangi zamonaviy zargarlik buyumlari yaratilmoqda. Hozirgi kunda usta zargarlar bilan bir qatorda bir necha birlashmalar- " Fonon " va " Kumush " birlashmasi , " Nur " davlat zargarlik markazi , " Musavvir " , " Ustazoda " kabi markazlar ham ichki bozorni zargarlik buyumlari bilan to'ldirmoqda . O'zbekistonda an'anaviy zargarlik bo'yicha uchta kuchli maktab mavjud. Birincha maktabga mansub Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida xalqona yo'nalish aniq ravshan ko'rinadi. Ikkinchi maktabga kiradigan Samarqand, Buxoro, Toshkent yo'nalishi shahar aholisining didi, estetikasi, ehtiyojlari talablaridan kelib chiqqan holda rivoj topgan. Nihoyat butunlay o'ziga xos bo'lgan Xorazm maktabi mavjud. Zargar ustalarimiz bugungi kunda ham o'z san'atlarini rivojlantirib, zargarlikning eng yaxshi qadimiy an'analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Ota – bobolarimizdan qolgan, saqlanib kelayotgan urf-odatlar, milliy qadriyatlarimizni bizgacha etib kelishida albatta turli xil manbalar, kitoblar, turli xil video tasmalar, kino, jurnal va boshqalar orqali biz o'tmishimiz haqida bilimlarga ega bo'lib kelmoqdamiz. Hozirgi kunda fan texnika jadal rivojlanayotgan vaqtda barcha yoshlarimiz o'z bilimini yanada boyitishda yangi va zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Zargarlik buyumlarini tayyorlashdagi barcha jarayonlarda ishlatiladigan asbob-uskunalar avvalo ishga yaroqliligi, ish joyida taxtligi va ulardan foydalanish mahorati bo'lishi zarur. Asbob-uskunalaridan foydalanishda albatta ustadan ehtiyotkorlikni, yani texnika xavfsizligi qoidalariga rioya

⁵⁴ Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. –Б. 54.

qilishni bilishi ham lozim. Aksar temir-po'latlardan tayyorlangan asbob-uskunalarni ehtiyotlashlari, namlikdan saqlashi, ulardan o'zlariga xos ish jarayonlarida foydalanishi kerak bo'ladi. Chunki asbob-uskunalarining soz bo'lishi va ishga yaroqli bo'lishi zargarlik buyumlarini sifatli tayyorlashda katta ahamiyatga egadir. Ijodkor zargar ustalar yangi-yangi ijodiy namunalarni tayyorlash uchun kerakli asbob-uskunalarni texnik vazifalariga qarab tayyorlab oladilar. Yer yuzida birgina bo'lsada ayol zoti bor ekan, zargarining hunari o'lmaydi. Nozik did bilan ishlangan bejirim taqinchoqlardagi ko'zni qamashtiruvchi qimmatbaxo tosh, dur va yoqutlarning mujassamlashishi asosida yaxlid bir san'at durdonasi paydo bo'ladi. SHu bois ham, zargar yaratgan har bir buyum zarga qiyoslanishi bejiz emas. Ma'lumki, zargarlik qadimdan o'zbek ustalari tomonidan qadrlanib, hozirga qadar saqlanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan eng nafis va ko'hna san'at turi hisoblanadi. Bu san'at turi hozirgi zamon zargarlarining juda boy an'analarga ega bo'lgan ijodida yanada ravnaq topmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda xalq amaliy san'ati turlarini rivojlantirish, ustalarning maxoratini kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan juda qulay sharoit yaratilayotganligi buning dalilidir. Xivalik marxum zargar Jumyoz ota quyidagilarni aytgandi: "Burungilar ziynat uchun bitta rangdagi tosh ishlatsalar, chiroyli ko'rinadi, der edilar. Biroq yomon ko'zdan saqlanish uchun bir necha rangdagi toshlar bo'lmasa bo'lmaydi, deb oldingi fikrlaridan qaytganlar".

Qaxramonimiz "O'zbekiston xalq ustasi", usta-zargar Fasxiddin Dadamuhammedov ham ko'p yillardan buyon ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borib, zargarlik sohasidako'plab muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan iste'dod egasi va go'zallik yaratuvchisidir. F. Dadamuhammedov zargarlik san'atini dastavval shunchaki hunar, deb egalladi. U 1979 yilda Toshkent teatr va rassomchilik instituti (hozirgi O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti) ning rassomchilik bo'limi "San'at nazariyasi va ixtisosi" yo'nalishi bo'yicha o'qib, uni muvaffaqiyatli tugatdi. Fasxiddin aka bir necha yil amaliy-bezak san'ati muzeyida ishladi. SHu davrda uning qalbida zargarlik

san'atiga qiziqish uyg'ondi . Bu qadimiy san'at turning texnik usullarini , xom ashyolar hususiyatini o'rganish uchun bir necha yillar kerak bo'ldi. Zargar F.Dadamuxammedov yaratayotgan asarlarida qadimgi milliy ustalar tajribasiga suyangani hamda dunyoni his qilish yordamida bu tajribani ongli ravishda zamonaviylashtirayotgani sezilib turadi . Usta asosan bilakuzuk , uzuk , sirg'a va marjon yasadi . Buxoro , Andijon , Samarqand , Surxondaryo , Qashqadaryo zargarlik maktablari hamda uyg'ur maktabi ustalarining an'analarga tayangan xolda ish buyumlari shaklan zamonaviy , nafis va texnik jixatdan nozik ishlanganligi bilan ajralib turadi . Usta yaratgan har bir san'at asarida qadimiylik bilan zamonaviylik uyg'unlashtirilib beriladi. Mukammal yaratilgan buyumlarni usta asosan “ melxior”, dur, kumush, feruza, marjon va sadafdan yasaydi.Buni andijoncha qashqar baldog'i, buxorocho bilakuzuk , farg'onacha tumor, toshkentcha zebigardon va oynali ziraklar misolida ko'rishimiz mumkin.Xalq Amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi usta o'zining tirishqoqligi bilan qisqa fursatda zargarlik san'ati bilimdonlarning e'tiboriga tushdi. Uning iste'dodi “ Usto “ xalq amaliy san'ati birlashmasi tomonidan yuksak baholanadi⁵⁵. Chunki bu birlashma yangilikka intiluvchi soha vakillariga imkoniyat yaratib , har tamonlama qo'llab – quvvatlovchi tashkilot sanaladi. Bu yerda zargar chinakam ijodiy faoliyatini boshladi. Zargarlik san'ati tarixini va alifbosini mukammal bilganligi bois zamonaviylik bilan uyg'unlashtira oldi. Barcha mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalarda qatnashib , o'z mahoratini namoyish etdi. Yurtimizdagi Xalq amaliy san'ati va Davlat san'at muzeyida qahramonimiz ijodidan o'rin olgan bir qancha zargarlik namunalari saqlanib kelinmoqda. Kasbga bo'lgan muhabbati va izlanuvchanligi natija berib, mamlakatimiz Birinchi Prezidentining farmoniga ko'ra usta zargar Fasxiddin Dadamuxammedov “ O'zbekiston xalq ustasi “ unvoniga sazovor bo'ldi. “

⁵⁵ Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. Хива: Хоразм Маъмун Академияси, 2010. –Б. 42.

Yaxshi zargar qo'lga kiritgan yutug'i bilan cheklanib qolmaydi. Ijod qila olsa, yangilik yarata olsagina, u xalq xurmatini qozonadi. Zero, har bir buyurtmachi betakror, antiqa buyumga ega bo'lishni istashi sir emas. Bu esa zargarning mahorati va dunyoqarashidan kelib chiqqan xolda yaraladi. Shu bois ham men yasayotgan buymlarimda bir xillikdan qochaman. Zargar, eng avvalo, tabiatan ko'rkam bezatilgan rang-barang xom ashyo, tovlanuvchi qimmatbaho va yarim qimmatbaho yarqirama toshlar, dur, marjon, sadaf, shisha, chinni, sir, lak va boshqa ashyolardan mohirona foydalana bilishi kerak. Birgina buyumni yaratish uchun avvalo, metallga ishlov beriladi. Yaratayotgan buyumning turiga qarab naqsh bosish, zarb qilish, bolg'alash, zarxallash, rang berish, toshni kesish va qirralash ishlari olib boriladi. Shundagina qo'limizdagi sovuq metal quyosh nuridek yarqirab, ko'zni qamashtiruvchi va tovlanuvchi zargarlik buyumiga aylanadi" – deydi usta F. Dadamuxammedov. Zargarlik buyumlaridan tashqari xalq amaliy san'atining unutilib ketayotgan turlaridan biri sirkor bezak san'atini Fasxiddin Dadamuxammedov an'anaviy milliy usulda metal qutilarda qayta tiklashga erishdi. U yaratgan sirkor qutilar kumush bilan nafis xoshiyalangan, milliy naqsh usullari bilan muzayan etilgan, ba'zilariga feruza, marjon qadalgan, shokila zanjirlar bilan ishlov berilgan. Odatda zargarlik qutisi misga ishlangan sirkor bezak tasviri bilan shaklan o'zaro qovushadi. Usta yaratgan san'at asrlarining esa har bir qismi umumiy badiiy obrazni o'zida aks ettiradi. Kamoliddin Behzod memorial bog'-muzeyida Obod turmush yiliga bag'ishlangan "Go'zallik olamida" nomli rangtasvir va zargarlik asarlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi⁵⁶. Ko'rgazmada O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika "Hunarmand" uyushmasi, O'zbekiston Badiiy Ijodkorlar uyushmasi xalq a'zolari, Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika rassomlik kolleji professor-o'qituvchilari, o'quvchilar, san'atshunoslar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston zargarlik san'ati

⁵⁶ www.zaprap.y3

an'anaviy yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan ustalardan biri- Fasxiddin Dadamuhammedovdir. Bugungi kunda F. Dadamuhammedov yaratgan asarlar O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi, Germaniyadagi Linden hamda Sank- Peturburgdagi etnografiya muzeylarida namoish etilmoqda. 1988 yilda Polshada zargarning " Barhayot an'anlar" ko'rgazmasi tashkil etilgan. Usta 1988 yilda " O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" degan sharaflı unvonga sazavor bo'ldi. Milliy hunarmandchiligimizga xos an'analardan biri ustoz-shogirdlikdir. Dadamuhammedovlar oilasi bu an'anani izchil davom ettirib kelmoqda. Hozirgi kunda usta o'zining 4 nafar o'g'li va 50 dan ortiq yosh shogirdlariga zargarlik san'ati sirilarini puxta o'rgatmoqda.

Ko'rgazmaning ochilishida usta zargar Fashiddin Dadamuhammedovga O'zbekiston Badiiy Akademiyasi diplomi hamda kumush medali topshirildi. "Go'zallik olamida" ko'rgazmasida rassomlar Orif Mo'minov, Bahtiyor Obidov, Margarita Shuvalova hamda Gulchehra Saidovlarning zargarlik san'ati durdonalari aks ettirilgan tasviriy san'at asarlari ham o'rin olgan. Hozirda Fasxiddin Dadamuxammedov sevimli hunarini o'z farzandlari Fazliddin, Muxsin, Tal'at va Boburlarga o'rgatish borabarida zargarlik sulolasiga ham asos soldi.

Zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish turlari.

Hozirgi kunda zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish asosan to'rt yo'nalish bo'yicha olib borilmoqda: yakka tartibda: seriyali tartibda: o'ymakorlik usuli bilan: filigran texnikasini qo'llab⁵⁷. Yakka tartibda ishlab chiqarish - bu jarayonda deyarli hamma ishlar - metallni eritib olishdan mahsulotga yakuniy pardoqlash berishgacha (agarda tosh o'rnatish lozim bo'lsa, toshlarni o'rnatish), hammasi qo'lda bajariladi. Yakka tartibda mahsulot ishlab chiqaruvchi zargar mahsulotning surati, rasmi, namunasi, chizmasi, yozma yoki og'zaki tushuntirilishi: toshning o'lchamlari va mahsulotning bo'lajak og'irligi haqidagi

⁵⁷ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 74.

ma'lumotlarga ega bo'lib, ularga tayangan holda uni tayyorlaydi. Zaruriy ma'lumotlar turkumiga o'rnatiladigan toshning o'lchamlari, qo'llanadigan metallning sifati va miqdori, uzukning ichki diametr o'lchami kiradi. Yakka tartibda mahsulot ishlab chiqarish boshqa ishlab chiqarish turlarining asosini tashkil etadi, chunki seriyali va o'yma mahsulotlar ishlab chiqarishda, namuna sifatida, yakka tartibda ishlab chiqarilgan mahsulot qo'llaniladi. Seriyali ishlab chiqarishda - ish unumi yuqori va mahsulotning tannarxi arzon bo'ladi. Ishlab chiqarishning bu turida mahsulotlar asosan shtamplash yo'li bilan tayyorlanadi. Seriyali ishlab chiqarish qo'llaniladigan toshlar mahsulot kuzxonalarining o'lcham va shakllariga moslab tanlanadi. Agarda toshlar standart o'lchamlarga va shaklga ega bo'lsa, ular uchun ko'zxonalar va boshqa detallar standart o'lchovlar bo'yicha tayyorlanadi. Bunday mahsulotlar hamma istemolchilarning talabini qondirish maqsadida juda katta miqdorda ishlab chiqariladi. Badiiy o'ymakorlik yo'li bilan ishlab chiqarish. Yakka tartibda tayyorlanadigan murakkab va badiiy mahsulotlar filigran ishlar, ko'p miqdorda o'ymakorlik yo'li bilan ishlab chiqariladi. O'ymakorlik yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish qo'l mehnatini yengillashtiradi, ish unumini oshiradi va qimmatbaho metallning yo'qolish darajasini kamaytiradi. Bu usul bilan mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan materialning o'ymakorlik xossalari yuqori bo'lishi shart. Filigran mahsulotlar qo'l yordamida tayyorlanadi, xom-ashyo sifatida turli kesim yuzaga va ko'rinishga ega bo'yalgan simlar qo'llaniladi. Kesib olingan sim (buralgan, dumaloq yoki yassi) bo'laklaridan qo'lda va moslamalar yordamida turli shakllar yasali yig'iladi va kavsharlanadi.

Zargarlikda ishlatiladigan asboblarning boshqa kasblar singari zargarlikda ham o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Loyli o'choq ,charm, o'tga chidamli loylar, payvand, naycha, temir qisqichlar, bolg'achalar , metal taxta, metal qisqichlar, pargor, zubilalar, misgarlikda ishlatiladigan ba'zi bir keskich asboblarning, charx tosh, kichkina qisqichlar, qoliplar, metaldan qilingan har xil diametrli yarim sharsimon chuqurchali qolipchalar, tunkalarni qirqish uchun

qaychilar, ombirlar, payvandlovchi asbob va boshqalar ishlatiladi. Zargarlar bu asboblarning ko'pini temirchi ustalarga buyurtma berib yasattirib oladilar⁵⁸. Ba'zi bir zargarlar o'zlari yasab oladilar. Bu asboblarning ko'pchiligi biror narsaga o'xshatib ishlangan masalan, Xivalik ustalar qaychini tuyaqushga, yana birlari qurbaqaga o'xshatib ishlashgan.

Zargarlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar

Punson—(puanson) zargarlikda ishlatiladigan asbob bo'lib , metallga naqsh ishlashda ishlatiladi.

Kirya— temir yoki po'latdan yasaladi. Uning bir necha kattalikdagi teshigi bo'lib oltin yoki kumush oldin kattaroq, keyin kichikroq teshikdan o'tkazib tortiladi. Oltin yoki kumush sim xozir shu xilda tayyorlanadi. Sim kiryaning naqsh o'yilgan joyiga qo'yib bolg'alansa (natijada naqsh xosil qilinadi. Xosil qilingan simni kirkira deb ataladi). U bezak buyumlarida ishlatiladi⁵⁹.

Zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi

Zargarlik ishi ancha nozik va murakkab . Zargarlikda kumush, tilla, mis, qalay, jez va boshqalar asosiy xom ashyo hisoblanadi. Avvalombor zargarlik buyumini yasash uchun xom ashyo eritiladi va quyub olinadi. Uni goh qizdirib, goh sovutib ishlanadi. Zargarlar o'choq va bir-ikki qasqonli damning bosma shaklida ishlashadi. Kumush yoki tillani bo'taga solib, ustidan bir chimdim tanakkor sepib, qo'raga qo'yiladi. Daxandam bilan o'tni puflab bo'tadagi ma'dan eritiladi. Eritilgan metallni rejaga qo'yib qotiriladi. Qotgan metallni sandonda xoyis bolg'a bilan bog'lanadi. Cho'zilgan metallni g'adir-budurlari durusht egov bilan qolgan izlari mayin egov bilan, undan qirg'i bilan ketkaziladi, silliqlab yaltiratiladi. Tayyorlanayotgan buyum tekislab bo'lingandan so'ng, o'tga qo'yib dam beriladi va tovlanadi. Tovlangan metal yapaloq yoki chorsi ombir bilan qisib sandonga olinadi. Shundan so'ng tayyorlanayotgan masalan, bilaguzuk korcho'p asbobida urib egiladi. Uni egovlab chizib bilaguzuk ko'rinishiga keltiriladi. Bilaguzuk kirini ketkazib,

⁵⁸ “Заргарлик” тўғараги ўқув қўлланмаси. Тошкент, 2013. – Б. 10.

⁵⁹ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 87.

pardoz beriladi. U qora kislotada tozalanadi. Zargarlik buyumlarini o'yma va qolip usulda yasaydilar. Ularni turli qimmatbaho toshlar: marjon, shisha, sadaf va boshqalar o'rnatib bezatiladi. Hozir Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon va boshqa zamonaviy zargarlik fabrikalarida ba'zi bir og'ir qo'l mehnatlarini avtomatlar bajaradi. Umuman aytganda mehnat boshqacha prinspsda bo'lib, bezak ashyolarining xillarini alohida-alohida ustalar yasaydilar. Shu jarayonlar ham sex a'zolariga tasimlab berilgan. Bezak buyumlarini tayyorlash ham birmuncha mehanizatsiyalashgan.

Zargarlikda foydalaniladigan ish qurollari.. Egov, ombir, lobzik, qaychi, quyish aravachasi, har-xil turdagi ko'z mahkamlagichlar va boshqalar bo'yicha tushuncha berish. To'garak a'zolari oq xalatda bo'lishlari va o'quvchilar kavsharlash apparatida ishlayotganda olovdan to'g'ri foydalanishlari, kavsharlash apparatida ishlayotganda titan pinsetda eritish kerakligi haqida tushuncha beriladi. Kavsharlashda o'tga chidamli g'ishtlardan foydalanish kerakligi tushuntiriladi. Zargarlik buyumlarini tayyorlash uchun - tayyorlash uslublaridan kelib chiqqan holda xilma xil asbob-uskunalardan foydalaniladi⁶⁰. Zargarlik buyumlarini tayyorlash uslublari yakka tartibda (qo'l mehnatida) va ko'plab (seriyalab) ishlab chiqarish tartibida bo'lib, har bir ish jarayoni uchun maxsus asbob-uskunalar bilan ishlov beriladi. Yakka tartibda tayyorlanadigan uslubdagi jarayonlar uchun kerakli bo'lgan asbob-uskunalar bilan tanishib chiqamiz; Rejalash jarayonida:

1. Lineyka. 2. Shtangel stirkul. 3. 90° burchakli metall chizg'ich. 4. Qalam va o'chirg'ich. 5. Metall qalamcha. 6. Mikrometr. 7. Stirkul (bir uchi qalamli va ikki uchi ignali). 8. Ichki va tashqi oraliqlarni o'lchovchi moslama.

Xomaki metall mahsulotlardan plastinkalar va uzun simlab tayyorlash jarayonida: 1. Valstlar. 2. Prokatkalar. 3. Fillerlar⁶¹.

Bukish va to'g'irlash jarayonida:

1. Tekistallet yog'och bolg'alar. 2. Temir bolg'achalar. 3. Har xil shakldagi

⁶⁰ “Zargarlik” tўgʻaraḡi ўқув қўлланмаси. Тошкент: 2013. – Б. 14.

⁶¹ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. –Б. 64.

metall rigellar. 4. Har xil shakllardagi metall sandonchalar. 5. Kaboshanankalar. 6. Konusli ankalar. 7. Plosko-gubstiklar va kruglogubstiklar. 8. Valstli prokatkalar. 9. Shtamplar.

Qirg'ish va egovlash jarayonida:

1. Qaychi va kusachkilar. 2. Lobzikli arralar. 3. Shaberlar. 4. O'yib gul soladigan shtixellar. 5. Har xil shakllardagi egov va nadfillar 6. Kesuvchi metall shtamplar⁶².

Eritish, quyish hamda kavsharlash jarayonlarida:

1. Kavsharlash moslamasi. 2. Metall pinstet va zajimlar. 3. Ingustlar (metall ariqchali qoliplar). 4. Tigellar (o'tga chidamli sopol chashkalar). 5. Quyishda ishlatiladigan qo'lbola aravachalar. 6. Mufel pechlar. 7. Flyus va kislotalar.

Pardozlash va sayqallash jarayonlarida:

1. Galvanik pardozlash moslamasi. 2. Elektr zaryadli pardozlash moslamasi. 3. Mexanik pardozlash moslamasi. 4. Sayqallash uchun presslangan namatlar va ipli sintetik tolali kruglar. 5. Goi pastasi.

Ko'zlar va toshlarni bostirish, maxkamlash jarayonida:

1. Davchiklar. 2. Nakatkalar. 3. Kornevertkalar. 4. Ploskogubstiklar. 5. Shtixellar. 6. Bolg'achalar⁶³.

Rejalashtirish ishlari va zargarlik ish qurollaridan to'g'ri foydalanish. Zargarlikda rejalash jarayoni. Barcha ishlarning boshi reja asosida tuzilganidek, zargarlik hunarida ham rejalash ishi bo'lib, u o'ziga xos tarzda bajariladi. Zargarlik hunarida rejalash jarayoni maxsus rejalash asbob-uskuna moslamalarda uch xil bosqichda amalga oshiriladi. Buyum eskizining bo'lishi, ya'ni tayyorlanishga asos bo'ladigan buyumning namunasi eskizi chizilgan suratdagi eskizi bo'lishi shart. Buyum eskizini o'lchamlarini belgilash, ya'ni tayyorlanadigan buyumni qanday o'lchamda bo'lishi va ishlatiladigan xomakilarni o'lchamlarini belgilash. Belgilangan o'lchamlarni metallarga ko'chirish, ya'ni eskizda belgilangan o'lcham chizmalarni tayyorlanadigan

⁶² Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 66.

⁶³ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 58.

buyum uchun tanlangan xomakilarga ko'chirib, o'lchamlarini belgilab, ajratish kerak bo'ladi. Demak, zargarlik hunarida rejalash jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirilgan ekan:

1. Buyum eskizini bo'lishi.
2. Buyum eskizini o'lchamlarini belgilash.
3. Belgilangan o'lchamlarni metallarga ko'chirish.

Rejalashda ishlatiladigan asbob-uskunalar:

1. Lineyka.
2. Shtangel stirkul
3. 90 gradusli burchakli metall chizg'ich.
4. Qalam va o'chirg'ich.
5. Metall qalamcha.
6. Mikrometr.
7. Stirkul.
8. Ichki va tashqi oraliqlarni o'lchovchi moslama kiradi⁶⁴.

Bunday asbob-uskunalar bilan foydalanilganda ularni talabga javob berishini tekshirib, rejalashni shoshilmasdan amalga oshirish lozim. Agarda rejalash jarayoni puxta bo'lsa, tayyorlanadigan buyumning sifat darajasi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Demak, bor e'tiborni rejalash jarayoniga qaratish shart bo'ladi. Rejalashda ishlatiladigan asbob-uskunalar Oddiy doira, oval, olma shaklidagi chizmalar. Chizmalarni to'g'ri rejalashtirib chizish. Chegara va uni charxlash. Zargarlikni o'rganishdan oldin o'quvchilar ko'zini o'rgatish, qo'lini ishga moslash uchun, 10 xil turdagi chizmalar o'rgatiladi. Bu chizmalar ko'rinishidan murakkab ko'rinsada oddiy doira, oval, olma shaklidagi chizmalarni chizib, so'ngra metallarga o'tiladi.

Zargarlik sanoati - yuksak badiiy ishlov berish yo'li bilan nodir metallar va qimmatbaxo toshlardan, shuningdek, boshqa metallardan buyumlar, taqinchoqlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i⁶⁵. Zargarlik sanoatida xom

⁶⁴ Абдуллев Н. Санъат тарихи. 2- тахрир. Тошкент. 1987-2001. – Б. 47.

⁶⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3 Ҳарфи. –Б. 113.

ashyo sifatida qimmatbaxo va rangli metallar(platina, oltin, kumush va b.), ularning qotishmalari, qimmatbaxo va yarim qimmatbaxo toshlar(feruza, fionit, olmos, aqiq, zumrad, yoqut), tabiiy toshlar, plastmassa, suyak, emal, shisha va b.) ishlatiladi.

O'zbekistonda Zargarlik sanoati korxonalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qimmatbaxo metallar va qimmatbaxo toshlar qo'mitasi huzuridagi «Fonon» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida. Ularning yiriklari: «1Toshkent zargarlik korxonasi», «2 sonli zargarlik zavodi», «Nur» davlat badiiy zargarlik markazi, «3sonli zargarlik zavodi», «Kumush» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi, «EyshnReyz» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi(Toshkent sh.), Shaxrisabz zargarlik korxonasi (Shahrisabz sh.), Burchmulla zargarlik zavodi (Burchmulla qishlog'i). 1992 yilda ishga tushgan Zarafshon shaxridagi Navoiy zargarlik zavod (avvalgi «Zarispark» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi) respublikadagi etakchi zargarlik korxonasi xisoblanadi⁶⁶. Bu korxonalar 585 va 750 asillik darajali (proballi) tilla qotishmasi, 925 asillik darajali kumush qotishmasidan turli xildagi zargarlik buyumlari (sirg'a, uzuk, zargarlik zanjirlari, sovg'abop maxsulotlar, kumushdan yasalgan oshxona anjomlari, yuqori badiiy sifatga ega bo'lgan zargarlik buyumlari, yakka buyurtmalar, yangi zargarlik buyumlarining modellari)ni ishlab chiqaradi. Shaxrisabz va Burchmulla zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan birga qimmatbaxo va qimmatbaxo bo'lmagan toshlarga qirrali ishlov beriladi. «Fonon» IIB Ilmiy texnika laboratoriyalarida zargarlik sohasida ishlatiladigan turli rangdagi sun'iy kristallar o'stiriladi. Zargarlik sanoati korxonalari bilan bir qatorda Respublikada buyurtmachining ashyosidan zargarlik buyumlari tayyorlash va ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi zargarlik ustaxonalari va yakka tartibda ishlovchi zargarlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. (Zargarlik). Respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan Zargarlik sanoati mahsulotlari sifati va asillik darajasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8

⁶⁶ www.arkhiv.y3

fevraldagi farmoni bilan tashkil qilingan davlat asillik darajasini belgilash palatasi nazorat qiladi. 1995 yil 24-25 oktabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlar respublika yarmarkasi o'tkazildi⁶⁷. 1997 yilda respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining «Usto» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni va boshqa tadbirlar O'zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba'zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hunarmandlar dastlab O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar palatasiga, so'ngra savdo-sanoat palatasiga kirdilar. Ular maxsus tashkilot—«Hunarmand» respublika uyushmasiga birlashtirildi.

Hunarmandchilik sub'ektlari O'zbekistonda tadbirkorlar, hunarmandlar va fermer xo'jaliklarining har yili o'tkaziladigan «Tashabbus» respublika ko'rik tanlovida ishtirok etadilar. 1996—2005 yillar mobaynida 10 nafar hunarmand xalq hunarmandchiligida erishgan yutuqlari uchun «Tashabbus» tanlovining g'olibi deb topildi.; 2001 yil 7 dekabrda «Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. 1999 yilning 4 iyunida O'zbekiston Respublikasining Davlat asillik darajasini belgilash palatasi Asillik darajasi palatalarining Evropa uyushmasiga to'la xuquqli a'zo bo'ldi. Davlat asillik darajasini belgilash palatasi qimmatbaxo metallardan yasalgan buyumlarning sofligini tekshirish va tamg'alash Xalqaro konvenstiyasiga kirish masalalari bilan 1996 yildan shug'ullanib keladi va kuzatuvchi mamlakat maqomida uning barcha kengashlarida qatnashadi. O'zbekiston Zargarlik sanoatida xom ashyo sifatida ishlatiladigan rangli metallar, qimmatbaxo va yarim qimmatbaxo toshlar respublikaning o'zidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqariladi va konlardan qazib olinadi. Xorijda zargarlik sanoati rivojlangan

⁶⁷ www.zargar.uz

mamlakatlar qatoriga AQSh, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Ukraina, Xindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar kiradi. Insonlar doim o'zlariga zeb berishni yoqtirishgan. 29- aprel- butun dunyoda Xalqaro zargarlar bayram kunini o'z ishining ustalari, bizning hayotimizni chiroyli qiladigan insonlar o'zlarining kasb bayramlarini nishonlaydilar. Zargarlik juda qadimiy kasblardan biri hisoblanadi, chunki insonlar azaldan o'zlariga zeb berishni yoqtirishgan. Birinchi taqinchoqlar oddiy va jo'n xomashyolardan tayyorlangan. Masalan: chig'onoqlardan, hayvonlar tishlaridan va qimmatbaho toshlardan munchoq shodalari tayyorlangan. Eng qimmatbaho taqinchoqlarni qabila boshliqlari taqishgan. Zargarlik san'atining vatani Qadimgi Yunoniston hisoblanadi. Rangli metal va toshlardan tayyorlangan birinchi zargarlik buyumlari Yunonistonda yaratilgan. Qadimgi ustalarning tayyorlagan buyumlari o'zlarining gozalligi va betakrorligi bilan hozir ham insonlarni hayratga solmoqda. Buyumlarni yasashda ustalar rangli toshlardan, durlardan va qahrabo(yantar) lardan foydalanishgan. Mayda durlarni kiyim- kechaklarning ustki qismini bezashda ishlatishgan qadimgi buyuk ustalarning ishlarini davom ettirgan holda hozirgi zamon ustalari, zargarlik san'ati qonunlaridan chiqmagan holda ajoyib buyumlar bilan bizlarni hursand qilishmoqdalar.

Davron Nosirovich Samatov hukumat qaroriga muvofiq O'zbekiston zargarlik sanoati uyushmasining raisi etib tayinlanadi. Bu haqda Adliya vazirligi axborot xizmati xabar bermoqda. " O'zbekzargarsanoati" uyushmasi Prezidentining 2017 yil 15 noyabrdagi qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib uning asosiy vazifasi Respublikamiz zargarlik san'atining ko'p asrlik an'analarni saqlash va rivojlantirish hisoblanadi. "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar 2020 yilgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismalar uchun bojxona to'lovidan ozod qilingan.

2.2 Xonlikdagi zargarlik buyumlarining turlari

Bezaklar ayollar libosining ko'p qismini egallaydi. Bosh, bo'yin , peshona, ko'krak, qo'ltiq, bel, burun, quloq, chakka va boshqa taqinchoqlarning butun bir kompleksini tashkil etadi. Bularning hamasi kelin-kuyovlar libosini to'ldirib, xanadonda to'y , bayram va boshqalarda taqiladi. Ba'zi bir zeb-ziynatlar bir umr taqib yuriladi. Zargarlik buyumlari turli-tuman bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Peshonaga taqadiganlari tillaqosh , boliabro' , bargak, quloqqa zirak, boshga takdo'zi, sanchoq, oltin tumor , ko'krak bezagiga murg'ak , zebigardon , tumorcha , soch bezaklari, sochpopuk, zulfi tilla, osma bezak, gajak, butun tirnoq , yarim tirnoq, qo'sh duo, burun bezagi , arabak, yuz bezagi xolbinni , bo'yin bezagi bo'yintumor, bozband, bel bezagi kamar, qo'l bezagi bilakuzuk, barmoq bezaklari uzuk va boshqalar bor. Turfa soch bezaklari qizlar kiyim boshidada muhim o'rin tutgan. Shulardan sochpopuk, yumaloq tuf va boshqalar kiradi. Bezaklar asosan ayol kishilarni yasantirishda ishlatilgan. Bosh, bo'yin, peshona, ko'krak, bel, burun, quloq, chakka va boshqa taqinchoqlar bir tizimni tashkil qiladi. Bu buyumlar turli-tuman bo'lib ular o'ziga xos nomlanadi: tanga duziy – taxya (do'ppi) bezagi, tumor – taxya duziy bezagi, bilakuzuk bilak uchun, shavkala – ko'krak oldi taqinchog'i, osma duziy – manglay taqinchog'i, kamar bog'i – tugma, davo duziy – ko'krak uchun, soch popuk – soch uchun. Bularning hammasi asosan to'y, bayram va boshqa marosimlarda taqilgan⁶⁸. Ba'zi bir zeb-ziynatlar bir umr taqib yuritilgan. Zargarlik zeb-ziynatlari bilan bezatilgan bosh kiyimi eng asosiy to'y libosi hisoblangan. XIX asr bosh kiyimi ziynatlaridan taxya duziy, tanga duziy, manglay duziy, do'ppiga mahkamlanib quloq ustida turuvchi bodomoy, butun tirnoq, yarim tirnoq, isirg'alar, aravak (burunga osilgan) saqlanib qolgan. Bezak uchun har xil tosh va tishlar ishlatilgan. Bosh taqinchog'i Butun tirnoq pastida hozirgi vaqtda qirilib ketgan Turon yo'lbarsining ikki joyga ikkitadan tishi qo'yilgan. Bular ayolni turli insujinslardan saqlarkan⁶⁹. Xorazmdagina saqlanib qolgan shavkala nomli

⁶⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. - М:1948.-Б. 74.

⁶⁹ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. –Б. 88.

taqinchoqning tuzilishi ham g'oyat murakkab. U halqasimon isirg'a yoki uch-to'rt qator shokilali chakka baldoqlariga mahkamlangan turli uzunlikdagi uch qavat marjondan iborat⁷⁰. Tillarang yaproqlar va asl marjondan qilingan shokilador zanjirlardan tuzilgan, marjonning o'rtasida suyri, bodom yoki shunga o'xshash murakkab ko'rinishdagi kattakon chiroyli turunj (limon naqsh) joylashgan. Turunjlar to'qima sim gullar va toshlar yoxud turli rangdagi sirdan islmiy naqshlar bilan, ichki qismi noislmiy naqshlar bilan bezatilgan. Eron, Ozarbayjon. Dog'istondan kelib qolgan zargarlar tomonidan maxsus keltirilgan va qayta ishlangan. Xonzodalarning shavkalasidagi marjonlar juda ko'p dur turkumlaridan tashkil topgan. Uzuklar tilla, kumush, ma'dandan qilinib, turli shakldagi qalqonchalariga rangli tosh va shishadan ko'z qadalgan. Xorazmda cho'zinchoq, kamdan-kam hollarda to'g'ri burchakli aqiq va shisha ko'zli uzuklar yasash azaldan rasm bo'lgan. Bayramlarda taqishga mo'ljallangan uzuklarning ko'zi chuqurchalarga o'rnatilgan feruza yoki tilla donachalari bilan gardishlangan. Uzukning toshi va gardishining uchli shakli diqqatni o'ziga tortadi. Olti qirrali ma'dan qalqonchali, burchaklari to'rtta zo'ldir qadamli. Ibtidoiy kesma naqshli yoki o'rtasiga tosh ko'z qadalgan Xorazm uzugi hozir ham mavjud va mashhur⁷¹. U xalq o'rtasida "qurbaqa uzuk" deb ataladi. Kumushdan yasalgan va oltin bilan qoplangan bu bezaklarning o'ziga xos xususiyati, go'zalligi, ustalarning boy fantaziyasini o'ziga mujassam qilgan.

Sochpopuk—soch bezak turlaridan biri bo'lib, sochpopuk deb ham yuritiladi, Ayollar sochlariga taqadigan zargarlik bezagi. Bu bezak qora ipakdan eshilgan, uchlari popukdan o'n besh- yigirmata chiyratma ip bo'ladi. Bu iplar kumushdan quyma guppa, qo'ng'iroqcha hamda naycha shaklidagi yana boshqa taqinchoqlar taqiladi. Sochpopuk turli shakllardan iborat bo'lib, uni turli nom bilan yuritiladi. Andijonda sochpopuk , bekakul sochpopuk , Namanganda esa kakulli sochpopuk , sochpopuk yoki balig'og'iz , panjarali

⁷⁰ Нуруллаева Ш., Жуманазарова М. Хоразм анъанавий кийим ва тақинчоқлари. (XIX аср охири - XX аср иккинчи ярми). Тошкент: Янги аср , 2013. –Б. 35.

⁷¹ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 57.

sochpopuk turlari bor. Qo'qonda qubba sochpopuk yoki katta qubba , Namanganda kartnoma , kartnoma bo'rdak , naycha, kartnoma , katta qubba, katta guppa va boshqa turlari bo'ladi⁷².

Zargarlik mahsulotlari ikki ko'rsatkich bo'yicha tavsiflanadi: mo'jallangan vazifasi va tayyorlangan materiali bo'yicha. Mo'jallangan vazifasiga qarab mahsulotlarni taqinchoq buyumlarga yoki kundalik hayot uchun mo'ljallangan ashyolarga bo'lish mumkin⁷³. Zargarlik mahsulotlarining juda katta qismini, taqinchoqlar: to'g'nog'ichlar, uzuklar, ziraklar, kulonlar, zebigardonlar, bilakuzuklar, zanjirlar va shu kabilar tashkil etadi. Kundalik hayot uchun mo'jallangan anjomlarga soch turmaklagichlar, taroqlar, qisqichlar, upadonlar, soat tasmalari, portsigarlar, munshtuklar, oshxona anjomlari va shu kabilar kiradi. Zargarchilikda qo'llaniladigan materiallar uch turga bo'linadi: qimmatbaho metallardan tayyorlanib, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan yoki bezatilmagan mahsulotlar; qimmatbaho, yarim qimmatbaho va qimmatbaho bo'lmagan materiallardan suvenir uchun mo'jallangan, badiiy qimmatga ega mahsulotlar; .Seriya ishlab chiqarishda qimmatbaho bo'lmagan materiallardan tayyorlanib, shisha yoki plastmassa toshlar bilan bezalgan mahsulotlar. Zargarlik mahsulotlarining asosini taqinchoqlar tashkil etadi. Qimmatbaho metall va uning qotishmalaridan tayyorlanadigan taqinchoqlar zargardan har bir taqinchog'i uchun yuqori mahorat, saranjomlik va aniqlikni talab etadi. Bunday yondashib tayyorlangan taqinchoqlar chiroyli, umri uzoq bo'lishi bilan birgalikda davr otishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydigan, unga modaning o'zgarishi deyarli ta'sir etmaydigan bo'lganligi sababli, xaqqoniy zargarona ish deb ataladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek Xiva xonligida taqinchoqlar turli -tuman bo'lib ular quyidagicha tavsiflanadi: Ayollar va erkaklar asosan qo'llariga va barmoqlariga taqinchoqlardan uzuk ,bilaguzuk kabi taqinchoqlarni taqqanlar⁷⁴. Ularni

⁷² Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 68.

⁷³ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. – Б. 63.

⁷⁴ Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2 тахрир. Тошкент: Тафаккур, 1987-2001. –Б. 76.

quyidagicha ta'riflasak bo'ladi. Uzuklar⁷⁵ — zargarlik mahsulotlarining ichida eng keng tarqalgan turi barmoqlar uchun mo'jallangan uzuklar hisoblanadi. Uzuklarning bir qancha turi mavjud bo'lib, ba'zilar biron belgini (masalan, unashtirilish yoki nikoh) bildiradi. Ular oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy uzuklarga tayyorlanishi murakkab bo'lmagan kesim yuzasi yarimaylana yoki to'g'ri to'rtburchak ko'inishidagi nikoh uzuklari; murakkab bo'lmagan ko'zxona va shinkadan tashkil topuvchi toshli uzuklar kiradi. Ko'zxona -tosh o'rnatish uchun tayyorlangan gardish, shinka - barmoqqa kiritiluvchi xalqa. Tuzilishi, tayyorlanishi va yig'ilishi murakkab bo'lgan uzuklar murakkab hisoblanadi. Bularga naqsh ko'zxonali, ko'p toshli, yig'ma qismlardan tashkil topuvchi, filigranli, gravirovkalanadigan va boshqa uzuklar kiradi. Uzuklarning bezak qismida ko'zxona bo'lishi yoki bo'lmasligi, ehtiyojga qarab turli usullar bilan toshlar o'rnatilishi yoki o'rnatilmasligi mumkin. Uzuklarning bezak qismining ko'rinishi aylana, oval, ko'p qirrali, turli ko'inishdagi shoxcha ko'rinishida; yassi yoki gumbaz ko'rinishida, turli elementlar kavsharlangan bo'lishi mumkin. Uzukning bezak qismini o'natishga qulaylaylik yaratish hamda mustahkamligini oshirish maqsadida ularga ostki qovurg'a o'rnatiladi. Ostki qovurg'alar ustki shaklga moslab baland yoki past, tik yoki konussimon tuzilgan bo'lishi mumkin. Ba'zan qavariq qovurg'alar ham qo'llaniladi. Uzuklarni shinkalari, ya'ni xalqalari ham turli kesim yuzaga ega bo'lishi mumkin - kengligi va balandligi o'zgaruvchan, ko'p holatlarda ko'zxonaga yaqinlashgan sari kengayib boradi. Shinkalarga qo'yiladigan asosiy talab shundan iboratki xalqa, ko'zxona, ostki qovurg'a va yuqori qism to'plamasi uzukning ichki aylana ko'rinishini hosil etishi shart. Ko'p hollarda shinka uzukning yuqori qismiga o'rnatilgan ostki qovurg'aga kavsharlanadi. Nozik shinkalar ham ostki qovurg'alarga ulanadi, lekin ko'pincha qo'shimcha quyilmalardan foydalaniladi. Quyilmalar mustahkamlikni va chiroyni ta'minlash bilan bir o'rinda ba'zan mayda toshlar bilan bezatiladi. Uzuklarning ichki

⁷⁵ Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. —Б. 97.

diametr o'lchamlari 15,5-24,5 mm oraliqda tayyorlanadi. Agarda uzukning ichki diametri 18 mm bo'lsa, demak uning o'lchami 18 bo'ladi. O'lchamlar har 0,5 millimetrdan o'zgaradi. Barmoqlarning o'lchamini aniqlovchi barmoq o'lchagich to'plami maxsus nomerlangan xalqalardan tashkil topadi va ular bir boylamga yig'ilgan ko'rinishda saqlanadi.

Bilakuzuklar⁷⁶ - ayollar hamda erkaklarning qo'lga taqish uchun bezak yoki kundalik hayot (masalan, soat tasmalari) uchun kerakli ashyo bo'lishi mumkin. Bezak uchun mo'jallangan bilakuzuklar tuzilishi, materiali, bezak toshlari va zargarona bajarilganligi bilan ajralib turadi. Tuzilishi bo'yicha - butun, bo'laklardan, bir necha to'qimalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho metall va toshlardan, filigranli badiiy bajarilgan bilakuzuklarning qiymati yuqori baholanadi. Ko'p bilakuzuklar zanjirsifat ko'rinishda tayyorlanadi. Bilakuzuk— belak bezagi (dastpona) , oltin, kumush yoki misdan yasaladi. U ayollar taqadigan zargarlik buyumi bo'lib, uning bodomcha bilaguzuk , yapoloq bilaguzuk , ilonboshi bilaguzuk, rasmana bilaguzuk, baqabosh bilaguzuk, kichik bilaguzuk va boshqa turlari bor . Bilaguzuklar quyish hamda so'qish usuli bilan ishlanadi. Metallni bo'tada eritib, taganak qo'yib yasalgani quyma bilaguzuk deb yuritiladi. Metallni bo'tada eritib, qolipga, qolipga quyib sovitib, so'ng bolg'a bilan urib, yorib ishlangani so'qma bilaguzuk, yozma yoki yorma bilguzuk deb yuritiladi. Bilaguzukni marjonlardan shoda qilib tayyorlangani puncha deyiladi. Asosan chaqaloq va qizchalarning bilagiga taqiladi. Bilaguzuk panjarali , o'rmali, har xil toshlarni yopishtirib ishlanadi. Bilaguzuklar kumush, tilla, mis hamda munchoqlardan yasaladi. Uning tutashgan hamda tutashmagan turlari bo'ladi.

Xorazm Amaliy san'at bo'limida KPN 6038/2 raqamda har xil shakldagi bilakuzuklar namoyishga qo'yilgan⁷⁷. Bu Xorazm quyma bilakuzuklarida

⁷⁶ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. – Б. 78.

⁷⁷ Нуруллаева Ш., Жуманазарова М. Хоразм анъанавий кийим ва тақинчоқлари. (XIX аср охири- XX аср иккинчи ярми). Тошкент: Янги аср , 2013. –Б. 66.

qadimiylilik nishonlari yaqqol seziladi. Naqshlar ichida, boshqacha shaklga solingan jonivorlar tasvirlari mavjud bo'lib, ular tabarruk hisoblangan. XIX asrda oyoqqa taqiladigan bilakuzuk marosimiy ahamiyatini salqab qolgan. Uni "Ko'zi yoriganda" bola ko'rgan serfarzand oilalardan olingan eski kumush buyum parchalardan qilganlar. Qo'ng'iroqchalari oyoq bilan uzuklarini raqqoslar bazmni gullatish uchun to'piqlariga taqqanlar. Uzuklar tillodan, misdan yasaliib, ustlariga qimmatbaho tosh va shishadan ko'z qadalgan. Xorazmda cho'zinchoq, to'g'ri burchakli xakik yoki shisha ko'zli uzuklar yasash azaldan keng rasm bo'lgan. Bayramlarda taqishga mo'jallangan bunday uzuklarning ko'z chuqurchalariga o'rnatilgan feruza yoki tilla donachalari bilan gardishlangan. Uzukning qadimiy shakllari asrlar osha yashab kelgan olti qirrali ma'dan qalqonchali va burchaklarida to'rtta zuldir qadamli, ibtidoiy kesma naqshli yoki o'rtasiga tosh, ko'z qadalgan Xorazm uzugi fikrimixning dalili bo'la oladi. Xon va hukmdor uchun uzuklar hokimyat ramzi bo'lib xizmat qilgan. Uzuk taqish har bir xotin-qiz uchun farz hisoblangan, busiz uning qo'li nopok sanalgan va uzuksiz qo'l bilan pishirilgan ovqati makrux, yuvgan kiri va boshqa ishlari nopok hisoblangan. Uzuklar tumor vazifasini ado etgan. Turli xatlar va egasining ismi sharifi, sanasi kabi yozuvlar yozilgan muxr uzuklar uzoq vaqtgacha qo'shimcha maqsadlarda foydalanib kelingan. XIX-XX asrda o'lka zargarlik san'ati uchun xos bo'lgan xususiyatlar, zargarlik buyumlarining ko'pligida, mahalliy xalq ruxi va ramzlarining ifoda etishida kumush buyumlaridan shakli, naqshi va milliy bo'yoqlardagi oddiylikdan tortib ko'zni oluvchi tilla va tillarang taqincholarning ranglari, boy bezaklardagi murakkablikgacha hamma-hammasida namoyon bo'ladi.

Peshona bezaklari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zeb-ziynatlar asosini tashkil etadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysida Tillaqosh, Buxoroda bolaobro' va Tilla bargak rasm bo'lgan. Qosh tepasida uchburchak shishalar qadalgan bo'ladi. Bargakni tag qismida sabir talay bargak yaproqchalar osib qo'yiladi. Bu yaproqchalar pirpirab ajoyib ko'rinish beradi.

Peshona bezagi bolaobro' tillaqoshga o'xshaydi. Shunga o'xshash bezaklari O'rta Osiyoni boshqa metallardan qisman o'zgarishlar bilan tarqalgan⁷⁸. Peshona bezaklaridan biri Gajak ham ko'p tarqalgan .

Ayollarning eng ko'p taqadigan taqinchoqlaridan biri bu quloqqa taqish uchun mo'jallangan taqinchoqlar hisoblanadi. Ularga eng asosiy taqinchoq ziraklar, Xorazmda bu taqinchoq turlicha nomlanadi. Masalan xalqa yoki sirg'a deb ataladi. Bundan tashqari gajak deb nomlanuvchi taqinchoqni quloqqa taqishgan⁷⁹.

Ziraklar⁸⁰ - ayollarning (asosan) quloqlari uchun mo'jallangan, keng tarqalgan taqinchoq .Quloqning ostki qismida hosil etilgan teshikchaga osilib taqiladi. Ziraklar ham, uzuklar singari, bir qancha turlardan iborat. Boshqa taqinchoqlardan farqli ziraklar juft holatda ishlab chiqariladi. Juftning bir bo'lagi ikkinchi bo'lagi bilan batamom o'xshash; sarflangan metall va toshning og'irligi, rangi va shakli bir xil bo'lishi zarur. Uzuklar singari ziraklar ham oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkabligi uning tuzilishi va tayyorlash texnologiyasi bo'yicha aniqlanadi. Zirakning asosiy qismlarini bezak qismi - ko'zxona, qulf qismi va aksinch bo'lsa, osilib turadigan ziraklar tashkil etadi. Har bir asosiy qism murakkab hisoblanishi mumkin. Ziraklarning oldingi bezak qismi bilan birga orqa qulf qismiga ham e'tibor beriladi. Chunki qulf ham zirakning chiroyiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va shu sababli unga katta talablar qo'yiladi. U ishlatishda oddiy, qulay, mustahkam, zirakning bezak qismiga va quloqning osilgan qismiga mos tushishi, inson badanining tegib turgan qismiga zarar etkazmasligi zarur. Qulflar tuzilishi va ishlashiga qarab bir tekisda bukilgan ilmoqli yoki ilmoqsiz, rezba yordamida berkiluvchi, prujinasimon va boshqa xillari ham bo'lishi mumkin.

Xalqa⁸¹—zirak, quloq bezaklaridan bo'lib, u ayollarning har kuni qulog'iga taqadigan bezak buyumidir. Xiva xonligida quloqqa taqiladigan

⁷⁸ Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. 2 жилд. -Тошкент: Фан, 1960. –Б. 86.

⁷⁹ Отажонов М. Хоразм тарихини ўрганишга оид ҳужжатлар // Қўлёзма. ЎзФАШИ. № 11664/1. - 26-вар.

⁸⁰ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарқ, 2005. –Б. 44.

⁸¹ Отажонов М. Хоразм тарихини ўрганишга оид ҳужжатлар // Қўлёзма. ЎзФАШИ. № 11664/1. - 26-вар.

taqinchog'.Uni isirg'a deb ham atashadi(xorazmcha –sirg'a). Xalqaning bir turi zirabaldoq— isirg'a turi hisoblanadi.

Gajak⁸²—(forsha-tojikcha jingalak) ayollar taqinchog'i. Gajak bir juft bo'lib ikki quloqqa taqiladi. U ko'pincha tilla, kumush yoki tilla xal berilgan kudlush plastinkalaridan tayyorlanadi. Zargarlar uni ko'pincha la'l, zumrad, yoqut toshlar qadab bezaydilar. Ustalar qadama toshlar atrofiga chiltor va girdak qo'yib bezaydilar. Gajakka shokilalar osiladi. U dur, sadaf, tilla xal berilgan kumush ziraklardan yasaladi. Gajaklar shakli va ishlanish usuliga qarab turlicha bo'ladi. Yarim oy, bodom bargi, qush gajaksimona shakldagilari Samarqand va Buxoro viloyatlarida, bodom shaklidagisi Farg'ona vodiysida hamda Toshkentda keng tarqalgan.

Taqinchoqlar ichida eng ko'p tarqlgan turi bu ayollar bo'yin-ko'krak taqinchog'i hisoblanadi. Bu taqinchoqlarga to'g'nog'ichlar, kulonlar, zebigardon, zanjirlar, tumorlarni aytishimiz mumkin.

To'nog'ichlar -ayollarning taqinchog'i bo'lib, ko'krakka, yoqaga, bo'yin oldiga taqiladi. To'g'nog'ichlar bir qancha turda tayyorlanadi va ishlab chiqariladi. To'g'nog'ichlar oddiy yoki murakkabga bo'lish mushkul. Oddiy bir tosh uchun mo'jallab to'rnog'ich tayyorlanadigan bo'lsa ham, uning o'lchamlari kichkina bo'lmaydi, bu o'z navbatida murakkablikni hosil etadi. To'g'nog'ichlar turli shakllarda bo'lishi mumkin - bir tekis, notekis, shoxcha ko'rinishida, barg ko'rinishida va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Ular turli - usulda, filigran shtamplab, quyma va yig'ma usullar bilan tayyorlanishi mumkin. To'g'nog'ichning old qismiga bezaklar joylashsa, orqa qismi to'g'nash uchun xizmat etadi. Ularni to'g'nash uchun turlicha ilmoqli qulflardan foydalaniladi.

Kulonlar - ayollarning (erkaklarning) ko'kragiga yoki bo'yniga mo'jallangan taqinchoq; zanjirga, marjonga yoki biron bo'yinboqqa osilib taqiladi. Oddiy kulonlar turkumiga bir tosh uchun mo'jallangan ko'zxonali va

⁸² Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. – Б. 84.

zanjirga ilish xalqachasidan tashkil topgan kulonlar kirishi mumkin. Kulonlar turli ko'rinishda - biron belgini (muchal, ism, tumor va boshqalar.) bildiruvchi yoki bir necha toshli, turli shaklli bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda, zanjirga osish uchun mo'jallangan xalqacha ham, toshlar bilan bezatilishi mumkin. Ko'p hollarda kulonlar uzuk, zirak bilan bir turkumda tayyorlanadi.

Zebigardon⁸³ - ayollarning bo'yniga taqish uchun mo'jallangan taqinchoq bo'lib, ko'p holatda uning detallari zanjirchaning yasalishi bo'yicha joylashadi. Agarda kulon osilchoqdan tashkil topgan bo'lsa, zebigardon bir-biri bilan ulangan yoki ulanmagan bir qancha osilchoqlardan tashkil topadi. Agarda kulon zanjirda bemalol harakatlanadigan bo'lsa, zebigardonni zanjirga ulash ikki xalqacha bilan amalga oshiriladi, buning yordamida u zanjir bilan birgalikda harakatlanishi mumkin. Zebigardon odatda bir qancha toshlar bilan bezatilgan va bir-biri bilan ilashib ketgan elementlardan tashkil topadi. Odatda zebigardonlar badanga yaxshi yopishib turishi uchun ularning ostiga qovurg'a qo'yilmaydi. Zebigardon shakldor yirik turunj va unga ikki tomonidan simmetrik birlashgan xuqqachalardan iborat bo'lib, ular o'zaro xalqa, sadaf, marjonlardan tuzilgan zanjirlar bilan bog'langan; o'rtadagi ikki parallel xuqqacha markazida kichik turunji bo'lgan zanjir orqali o'zaro bog'lanib zebigardon qatini xosil qiladi. Markaziy yirik turunjning yuqori qismi 3—5 yaproqli g'uncha shaklida, quyi qismining uchi pastga qaragan bodom ko'rinishiga ega bo'lib, shokilalar bilan xoshiyalangan. Xuqqachalar romb, Zebigardon to'rtburchak, aylana shaklida, ayrim Zebigardonlarda so'ngi yuqoridagi yakunlovchilari burchakli qilib ishlangan. Turunj va xuqqachalar bosma naqshlar, qimmatbaxo toshlar, rang-barang shishalar bilan bezatilgan. Zebigardon Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan.

Zanjirlar⁸⁴ - ayollar va erkaklar bo'yiniga osish uchun mo'jallangan, turli to'qimalardagi birikma elementlar shodasi. Ular qo'lda yoki dastgohda to'qilishi mumkin. To'qimalarning tuzilishiga qarab oddiy yoki murakkab to'qilgan

⁸³ Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 3 ҳарфи. —Б. 137.

⁸⁴ Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. Хива :Хоразм Маъмун Академияси, 2010. -Б. 32.

zanjirlarga turkumlanadi. Ba'zi hollarda to'qimalar shtamplab yoki quyma ko'rinishida tayyorlanishi mumkin. Zanjirlarning uzunligi inson bo'ynining uzunligiga qarab tanlanadi va 40, 45, 55, 60 sm oralig'ida bo'lishi mumkin.

Tumor⁸⁵ — tumorcha, zargarlikda zeb-ziynatlarning bir turi bo'lib, ayollar bo'yin hamda qo'ltiqlarga taqadigan bezak. Bu uchburchak shaklida, ba'zan tilla yoki tillaxal yuritilgan kumushdan yasaladi. Keyingi vaqtlarda uni to'rtburchak shaklida ham yasashyapti.

Tumor ikki qismdan iborat bo'lib, old tomondagisi qopqoq bo'lib, u juda chiroyli bezaladi. Orqa tomoni qutichadir. Tumorning bo'yniga solinadigani zanjira bo'lib, kichkinasi bo'yinga solinadi. Uni bo'yintumor, qo'ltiqqa taqiladiganini qo'ltiq tumor deb yuritiladi. Qo'ltiq tumorini Qo'qonliklar bozvant deb yuritiladilar. Duo yozilgan qog'ozni buklab charm yoki biror materialga o'rab tikiladi, buni ham tumor deyiladi. U uchburchak yoki to'rtburchak shaklida bo'ladi. Qadimdan tumorchalarni taqib yurishdan maqsad ham bezak, ham diniy tasavvurga ko'ra tumor taqqan kishi go'yo omadli, turli ofat, balo-qazolardan, yomon ko'zdan saqlaydigan narsa deb tushunilgan.

Xiva zargarligida peshonaga va sochlariga taqiladigan taqinchoqlarni ayollar taqishgan. Tillaqosh⁸⁶ — zargarlikda peshona bezak turlaridan biri ayollar peshonasiga taqiladigan bezak. Uni Farg'onada tillabargak deb yuritiladi. Tillaqosh yupqa tilla xal yuritilgan kumush plastinkadan yasaladi. Tuzilishi jihatidan ikki qismdan iborat bo'lib, juda chiroyli qilib bezaladi. Ularni tutashgan joyida la'l (yoqut) bo'lib, keyinchalik shakli biroz o'zgarib ketgan. Unga havorang munchoq (marjon) hamda har xil toshlar o'rnatiladi. Tillaqoshning pastki qismlariga donacha shigilalar, zig'irak hamda marvaridlar osilgan bo'ladi.

Bargak — zargarlikda peshona bezak turlaridan biri, ayniqsa XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida zeb-ziynatlarni asosini tashkil etadi. Uni sharq ayollari peshonasiga taqadilar. Uning tilla bargak, kumush bargak va

⁸⁵ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. –Б. 50.

⁸⁶ “Заргарлик” тўғараги ўқув қўлланмаси. Тошкент, 2013. –Б. 10.

boshqa turlari bor. Bo'yin-ko'krak zeb-ziynatlari turli-tuman. Ular bosh zeb-ziynatlariga qo'shimcha bo'ladi. U kiyim kechakning yaxlitligini ta'minlaydi. Kambag'allar orasida XIX asrda marjon shodalarini to'qish odat tusiga kirib, asrimiz boshlarida kumush tangalardan zeb berish ommalashdi. Zarxal berilgan kumush tangalisini boy xotin-qizlar taqar edilar. Samarqandda murg'an shodasi taqish, Samarqand, Toshkent, Farg'ona vodiysida "Zebigardon", Buxoroda "Nozi gardon" dan keng foydalanadilar. Bulardan tashqari kumushdan yasalgan "tumor" turlari bor⁸⁷. Uchburchak shaklidagi yirigi ko'krak tumor hamda uchburchak shaklidagi "bo'yin tumor" deb yuritiladi.

Zebigardon—forscha-tojikcha bo'yin bezagi degan ma'noni anglatadi. U ayollar taqinchog'i, ziynat buyumi bo'lib, bo'yinga taqiladi, ko'krakka tushirib qo'yiladi. Zebigardon xalqacha, sadaf, munchoq, marjonlarni bir-biriga biriktirib yasaladi. Xuqqalar (medalyon) qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bo'ladi.

Zarkokil—tangacho'lpi, ziynat buyumi, Sharq ayollarining sochlariga taqadigan bezagi. Ayollarning ikki chakkalari yoki soch o'rimlariga taqilgan. Dastlab Qo'qon xonligi davrida oltindan yasali b zarkokil deb atalgan. Keyinchalik tanga va so'lkavoylardan («tangacho'lpi» nomi shundan) ikki qator qilib ishlangan. Tanga va so'lkavoylar o'zaro kumush zanjir yoki xalqachalar bilan ulangan. Yuqori qismidagi ilgagi bilan chakkadagi sochga, soch o'rimlariga taqib qo'yilgan. Xorazm taqinchoqlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zargarlik buyumlari bo'lmish taqinchoqlar turlicha bo'lib, ular tananing qaysi qismiga taqilishiga qarab turlarga bo'linib, turlicha nomlangan. Masalan Xorazmda ensa taqinchog'i O'q-yoydo'ziy, Yarim tirnoq, ayollar peshona taqinchoqlari Qanot-osma, Pardo'ziy,

⁸⁷ Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Хоразм Маъмун Академияси. Тошкент, 2012. – Б. 14.

Qoshinna , Manglaydo'ziy yoki osmado'ziy, Tangado'ziylar deb nomlangan, Tangado'ziy 1870-1901 yillar oralig'ida zarb qilingan kumush tangalardan yasalgan. Faqat boshga kiyiladigan taqinchoqlar Taxyado'ziy yoki toj-bosh kiyimi, yana biri Taxyado'ziy- kelin taxya bezak taqinchog'i hisoblanadi. Butuntirnoq-chakka-quloq taqinchog'i, Bodomoy-esa peshona, chakka taqinchog'i.

XIX asr oxirida ayollar ko'krak qismiga taqiladigan taqinchoqlar Shavkala, Ko'krakduziy, Sadafdo'ziy, Duodo'ziy, Davocha, Marjondo'ziy. Manglaycha- shavkala taqinchog'ining peshona va chakkaga taqiladigan qismi. Aravak- burun taqinchog'i. XIX asr oxirida qo'lga taqiladigan taqinchoqlarga Bilozik-(Bilaguzuk)- ayollar qo'l taqinchog'i bo'lib, juft holda taqilgan. Bolalar uchun yasalgan bilaguzug- so'rg'ich taqish uchun mo'ljallangan. Bu davrda uzuklar ham alohida nomlanishga ega bo'lgan Xotam- muhr uzugi hisoblanib, undan biror bir hujjatga muhr bosish uchun foydalanilgan. XX asr taqinchoqlari qatoriga kamarlarni ham kirgizish mumkin. Ular ayollar va erkaklar taqadigan kamarlarga bo'linib, quyidagicha nomlanadi. Kalitbog'i—ayollar bel taqinchog'i. Erkaklar taqadigan kamarlar ham o'z navbatida ikkiga bo'linib, ular Kamarbog'i- erkaklar bel bezagi hisoblanib, bolalar taqadigani ham kamarbog'i- bolalar bel bezagi deb nomlanadi. Qilichbog'i ham erkaklar bel bezagi hisoblanadi. Kamarbog'ilarning qorabo'z asosiga 78 ta oq metal tangalar va pastki qismiga popuklar qilingan⁸⁸.

2.3 Zargarlik buyumlarining o'ziga xos jihatlari va hududiy farqlari.

Zargarlik san'ati juda qadimiy tarixga ega. Unga insoniyat yerda yashashni boshlagan davrdayoq asos solingan. Zargarlik san'ati milliy-badiiy

⁸⁸ Нуруллаева Ш., Жуманазарова М. Хоразм анъанавий кийим ва тақинчоқлари. (XIX аср охири- XX аср иккинчи ярми). Тошкент: Янги аср, 2013. – Б. 22.

madaniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning olis o'tmishidagi oliy maqsadlarini o'rganishda yordam beradi. Ziynat buyumlari hunar egalarining mahoratidan, ma'lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlaridan, ma'dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan himoya qiladilar, zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san'atining uslubiy xususiyatlarini o'zlarida namoyon etadilar. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada yodgorliklaridan topilgan devoriy bezaklari orqali zargarlik san'ati qay darajada rivojlanganligini ko'rish mumkin⁸⁹.

Dastlabki taqinchoqlar Kungurador doira va astvona (silindr) ko'rinishidagi chig'anoqlar xosildorlik va ma'murchilik ramzi sifatida foydalanilgan. Miloddan avvalgi III ming yillarda feruza va marmar nusxa oniksdan dumaloq va uchli munchoqlar yasalgan. Munchoq yasash uchun ustaxonalar va yoy parma singari oddiy asbob – uskunalar ham bo'lgan. Munchoq shokila singari taqinchoqlarning kelib chiqishi davrida ular ins-jinslardan asrovchi tumor vazifasini o'taganlar. Ularning shakllari g'oyat oddiy bo'lib, goh naqshsiz, silliq, goh to'g'ri chiziqlar, yo xalqalar, turli naqshlar bilan pardoqlangan. Islom dinining ta'siri qancha kuchli bo'lmasin jonli maxluqot tasvirini tushurish o'z o'rnini yo'qotmadi. Qolaversa, xalq san'atining ta'sirida shu qadar teranlik, erkin va haqqoniylik yotadiki, uni qandaydir diniy qarashlarga butunlay bo'ysundirish also mumkin emas. Hayvon va qushlarni ifoda etish badiiy uslubi o'zgargan bo'lsada, “islamiy” naqshlar bilan birikib ketsada, hamon bu uslubning uzviy qismi bo'lib yashab kelar edi. Bu davr namunalari sifatida barcha tumorlar, kamar tukalari va boshqa buyumlar yetib kelgan bo'lib, ular brinjdand, misdan, kumushdan yasalgan. Ko'rinishlari esa hayvon, qush, baliq, afsonaviy maxluq, ilon boshiga o'xshab yasalgan bilakuzuklar shaklida bo'lgan. Bu buyumlarga har xil balo qazo, ins-jinslardan asrovchi, yaxshilikka eltuvchi, savob keltiruvchi, baxt-saodat eshikini ochuvchi karomatlariga ega deb

⁸⁹ Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. – Б. 76.

qaralgan. Bu davrda xusnixat yozuvlarini naqshda foydalanish yangilik bo'lib, ular bilan turli hayvonlar sherlar tasvirini bezaganlar. Yozuvlar ham o'ziga xos yaxshilik ma'nosini anglatgan. Kuch-qudrat, oliy himmatli, boylik, osoyishtalik, baxt-saodat, xuzur-halovat, izzat-hurmat, tani-joni sog'lik, mo'l-ko'lchilik va boshqalarni anglatgan.

Aks ettirilgan tasvirlarning karomatligi bilan yozuvlarning muqaddasligi bir-birini inkor qilish u yoqda tursin aksincha, turli diniy tasavvurlarning maxsuli bo'lishiga qaramay, biri ikkinchisini ma'no jihatdan to'ldirib kuchaytiradi. X-XII asrlarga taalluqli zargarlik namunasi bo'lgan ilon shaklidagi burama kumush bilakuzuklarning shakli ham jonli maxluqot ramzi bilan bog'liqdir⁹⁰. Qadim zamonlardan oq Sharq va Osiyoda ilonga yaxshilik belgisi deb qarashgan. U xonadon, oila, boylik, mol-xol, obi xayot, xazina, yer osti mad'anlari, qon, qabr, muqaddas daraxtlar va boshqa shun ga o'xshash narsalarning posboni hisoblangan. U yana xotin, qiz va bolalarning xomiysi sifatida qadrlanadi, uning surati xaloskorlik ramzi bo'lgan. XIII asrda Xorazmda uchlari yo'lbars boshiga o'xshatib ishlangan bilakuzuklar ayollarning serfarzandligini bildirgan, bola-chaqalarni turli ins-jinslardan asrovchi xomiy hisoblangan⁹¹. Abu Rayhon Beruniyning tojlar haqidagi so'zlari diqqatga sazovor "Zodagon va oddiy kishilardan o'zini yuqori ko'rsatish uchun toj va maxsus bosh kiyimlari qila boshladilar"⁹². Quloq, tish, tirnoq tozalagich kabi turli pardoziy buyumlari naqshlari bilan bezatilgan bo'lib, mitti qushchalar shaklida yasalgan. Bunday buyumlarni yasashda odamlar ularga ko'proq oro berish vositasi deb qarashi hisobga olingan. Natijada badiiy ishlov berilgan pardoziy buyumi zeb-ziynat buyumiga aylangan. Ular ko'ylakka qadab qo'yilib, doim egasining yonida bo'lgan. Qadimda igna yasash ancha murakkab ish bo'lib, uni juda extiyot qilib saqlaganlar. Ignalar uchun maxsus igna xaltalar tayyorlangan. Bu xaltalar chiroyli qilib

⁹⁰ Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2 таҳрир. Тошкент, 1987-2001. –Б. 55.

⁹¹ Жабборов И.М. Ўзбеклар турмуш тарзи ва маданияти. – Ташкент: Ўқитувчи, 2003. –Б. 124.

⁹² Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968. –Б. 136.

ishlangan bo'lib, ko'krakka taqinchoq sifatida osib yurilgan va ignani osish o'ng'ay bo'lgan. Bu ham ins-jinslardan saqlovchi buyum vazifasini bajargan. G'oyat bejirim ishlangan naqshinkor, baland gardishlariga o'rnatilgan yirik feruza ko'zli uzuklar kishilar orasida alohida qiziqish uyg'otadi.. O'zbekiston zargarlik san'ati taraqqiyoti O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo'shni mamlakatlar xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq. Xalqlarning o'zaro tinch yo'l bilan bir-biriga yaqinlashuvi madaniyatlarni boyitgan, ular bir-birlari uchun yaqin, qadrlil bo'lgan narsalarni almashganlar bora-bora bu har bir xalqning mahalliy san'atiga singib ketib, o'ziga xoslik va mustahkam an'ana kasb etgan. Markaziy Osiyodagi qadimgi tarixiy zargarlik buyumlari va ularning hozirgi kundagi zargarlik buyumlaridan farqi IV-V-asrlarda ishlangan zargarlik buyumlari tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan: Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan⁹³. O'lis tarixdan XX asrgacha barcha taqinchoqlarga ham bezak, ham irim deb qaralgan. Bular ichida tumor maxsus taqinchoq bo'lib, ins-jinslarni xaydash uchun taqib yurilgan. XIX-asr va XX-asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida zargarlik tez sur'at bilan rivojlanadi. Ko'pgina shaharlarda, masalan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G'ijduvon, Marg'ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo'lib, ular maxsus mahalla-mahalla bo'lib yashaganlar⁹⁴. Zargar ustalarimiz bugungi kunda ham o'z san'atlarini rivojlantirib, zargarlikning eng yaxshi qadimiy an'analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Miloddan avvalgi I-III asrlar mobaynida hukm surgan Ahamoniylar sulolasiga mansub Amudaryo xazinasidagi va hozir Buyuk Britaniya muzeyida saqlanayotgan zargarlik buyumlari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. O'zbek xalq amaliy san'atining turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik alohida o'rin egallaydi. Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nixoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun

⁹³ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991.- Б. 89.

⁹⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиқ тарихи. Тошкент, 2000. -Б. 74.

faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'liq uchun, inson ruxiyati uchun ijobiy ta'sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko'z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izda qo'lansa hidlarni yo'qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavoil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko'z kasalligiga shifobaxsh ta'sir etgan, ilon chaqqanda eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan⁹⁵. Sadaf Sharqda xam, Evropada ham yuqori baholangan. Undan to'g'nog'ich, baldoq, marjonlar ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar maxbubasiga sovg'a qilgan. U taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zexnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruxiyatini ko'targan. Yoqut, vaboni daf qiladi degan aqida ham bo'lgan. Undan oybaldok ko'rinishidagi isirg'a va boshqa taqinchoqlar yasalgan. Rangli toshlardan egasining ismi sharifi bitib yozilgan muxr uzuklar maxsus tayyorlanar edi. Rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad payg'ambarning uzukiga «Bari o'tadi» degan yozuv naqshlangan ekan. Zangori rangli shisha munchoklar, kambag'allar uchun feruza o'rnini bosib, taqinchoq sifatida foydalanilgan. Har xil tuzulishdagi shisha munchoqlar kishida qizikish uyg'otadi. Shisha qorishmasidan tayyorlangan munchoqlar zargar ustalar tomonidan ajoyib mohirona tayyorlangan. Undan tayyorlangan bu taqinchoklar yaltiroq ko'rinishga ega bo'lib, badiiy jozibasi juda baland bo'lgan. Ayollar orasida feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshlar bilan bezatilingan zargarlik buyumlari yaxshi qadrlangan. Chunki ular bezak bo'libgina qolmay, inson salomatligi uchun ijobiy ta'sir etgan. O'tmishda marjon, uzuk, bilakuzuk va boshqa taqinchoqlar yasalib, ular odamlarni qaxr-g'azab, g'am-andux, ins-jinslardan saqlaydi, degan aqida bo'lgan. Xalsedondan o'tmishda marjonlar, uzuk, to'g'nag'ichlar, bilaguzuk va boshqalar yasalib, u go'yo odamlarni qaxru-g'azab, g'amu-anduxdan asragan. Qadimiy rivoyatlarga qaraganda taqinchoqdagi xayvonning shoxlari, tirnoqlari yoki qushning ramziy ifodasi inson hayotida bo'ladigan turli balo qazolardan

⁹⁵ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, 1991. –Б. 96.

asrar ekan va tumor vazifasini bajargan. Xorazm taqinchoqlari orasida “O’q yoy” bezagi qadim zamonlardan taqib kelingan, buning ramziy ma’nosi ona - ma’buda sifatida xaloskorlik vazifasini ato etgan. Xorazm kelining boshida ochiq joy qolmagan, manglay, ikkala chakka, quloqlar, bosh orqasidan hammasi taqinchoqlar tagida qolib ketib ,” yovuz ruxlarning yo’li tosib qo’yiladi. Qizlar va barcha yoshdagi ayollar sirg’a taqmay iloji iloji yo’q .

Shakl jihatidan sirg’alar g’oyat rang- barangdir. X.A.S.B zargarlik zalida KPN 6406/5 har xil shaklli sirg’alar namoishda turibdi. Yosh qizaloqlarga moslab ishlangan mitti – mittilaridan tortib, boy zodagon xotinlarning sirg’alari bor. Sirg’alarning ramziy ma’nosi saqlanib qolgan: Bir farzandsiz oilada nihoyat og’il dunyoga keladi, shunda 7 nafar ko’p bolali onaning kumush taqinchoqlaridan kichkina-kichkina bo’lakchalar yig’ilib olib, sirg’a yasaganlar va chaqaloqning qulog’iga taqib qo’yganlar. Bola uni uylangunga qadar qulog’idan tashlamagan (irimchilik). Burunga taqiladigan sirg’aning ko’plab mahalliy nomlari mavjud, shular ichida Xorazmda bu sirg’ani “ aravak” deb ataydilar. Ustalar uni Arabiston, Hindistondan olib kelgan degan taxminlar bor. Aravak taqishni ayollar o’zlariga sharaf deb bilganlar. Bu sirg’a burunga taqiladi. Badavlat xonadon ayolining aravaki tilla sim gardishi bo’lib, uning pastki yarmiga va ulagichiga turli munchoqlardan shoda tuzilgan⁹⁶. Uzuklar haqida aytadigan bo’lsak, uzuklar xon va hukmdorlar uchun xokimiyat ramzi hisoblangan. Ular uchun zargarlar va muhrkan ustalar tilla va kumushdan alohida chiroyli va bejirim uzuklar tayyorlaganlar. Ko’zli yo ko’zsiz uzuk taqish har bir xotin-qiz uchun farz bo’lgan. Busiz uning ko’li ayollar nazmida nopok sanalgan. Uzuksiz qo’l bilan pishirgan ovqati makrux, yuvgan kiyim-kechagi va xokazolar nopok hisoblangan. Munchoqlar ichida to’rtburchak shaklidagi yashil shisha munchoq alohida muqaddas kuchga ega deb hisoblangan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha feruza g’alaba, bax- saodat, tantana, omad, farovonlik sifatini bildiruvchi tosh bo’lgan⁹⁷. 1898 yil

⁹⁶ Юнусхўжаев Т.Т. Заргарлик сирлари. Тошкент: Шарк, 2005. –Б. 74.

⁹⁷ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968. B. 93.

Xorazmga kelgan A.E. Rossikova shunday yozgan : “ Tug’mas xotin qahrabo va mayda kumush tangalardan, undan tashqari, asl marjon va qalampir munchoqdan qilingan munchoqlar taqqanlar”⁹⁸. Xusnni saqlash uchun qahraboda, erini o’ziga isitib yuritish uchun asl marjondan munchoqlar taqqanlar. Bu munchoqlar tizimi, durni tilla tizimi bilan qo’shilib, bir necha munchoq tizimi qilingan. “ Qatlama “ deb atalgan bunday munchoqlar g’oyat serjilo, o’ynoqi bo’lib, rang va gullarida chuqur mazmun va tarovat jilva qilib turgan . Qadimda igna yasash ancha murakkab ish bo’lib, uni juda ehtiyot qilib saqlaganlar. Ignalar uchun maxsus igna xaltalar tayyorlangan. Bu xaltalar chiroyli qilib ishlangan bo’lib, ko’krakka taqinchoq sifatida osib yurilgan va ignani osish o’ng’ay bo’lgan. Bu ham ins-jinslardan saqlovchi buyum vazifasini bajargan. To’y marosimlari, ulug’ ayyom kunlarida ayollarning boshidan beligacha har xil munchoqlar, tumorlar va taqincholar bilan qoplangan. Bu taqinchoqlar bir tomondan bezak sifatida taqilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan “ yovuz kuch” lardan saqlagan. O’zbek xalq Amaliy san’atining har bir turi kabi, zargarlik san’ati ham o’ziga xos xususiyatlariga ega. Chunki ular inson uchun bezak buyumlari bo’lib qolmay, balki sog’lik uchun, inson ruxiyati uchun ijobiy ta’sir etgan. XX asr boshiga kelib tillani o’zidan zargarlik buyumlari yasash ko’paydi. Bu hol tashqi dabdababozlikka o’ch bo’lgan saroy ahlining talablari natijasida yuzaga keldi. La’l, yoqut va uning turlari , zumrad, xaridorgir toshlar bo’lgan. Tosh va madanlarga tilsim, muqaddas va sehr-jodu deb qarash bu davda ham saqlanib qolgan. Ular shifobaxsh va xaloskorlik qudratiga ega , inson taqdirini o’zgartira oladi , tabiatga ham ta’sir qilib , yomg’ir yog’dirar va ekinlarni qurg’oqchilikdan asrab qoladi, baxt- saodat va boylik, omad keltiradi degan tasavvurlar , xaloskorlik, himoya hususiyatlari deyarli barcha zeb- ziynat buyumlarida saqlanib qolgan. Zeb-ziynat buyumlari, hayotdagi ijtimoiy- iqtisodiy o’rni ham, kam ahamiyat kasb etmagan. Insonning jamiyatdagi mavqeyi ham ko’pincha

⁹⁸ Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007. – Б. 82.

uning qancha qimmatbaho zeb-ziynatlari borligiga qarab belgilaganlar. Taqinchoqlar kishilar yoshidagi farqni va oilviy ahvolni belgilashda xizmat qilib, ularning nasl-nasabidan nishona berib turuvchi xususiyatga ega bo'lgan Zargarlik buyumlari to'plami 1920 yilda xon saroyining boshqa buyumlari qatorida muzeyga topshirilgan. Lekin sho'rolar hukumati davrida bu qimmatbaho to'plamning nodir nusxalari markaz muzeylarida namoyish qilish bahonasida olib ketilgan. XX asrda zargarlik buyumlari tilla, kumush, bronza, mis, feruza, marjon va oddiy shishalardan tayyorlangan. Taqinchoqlarni tayyorlashda ustalar an'anaviy usullardan foydalanganlar quyma, toblash, kandakorlik, bosma, o'yma, sir berish, qadama, simto'r, xal berish va boshqa usullardan foydalanganlar. "Ichon qal'a" muzey- qoriqxonasi jamlanmasida 200 dan ortiq Xorazm zargarlik buyumlari saqlanadi. Ularni eng qadimgisi erkaklarning sher boshli kumush uzugi hisoblanadi. San'atshunoslar uni VII asrga taalluqli ekanini hamda u ajdodlar totemi bo'lganligini taxmin qiladilar. Barcha bezaklar ma'lum bir vazifaga va marosimiy ma'noga ega bo'lgan. Ayollar zargarlik buyumlari bosh, ko'krak va bel qismlarga bo'lingan. Erkaklar kiyim-boshini alohida mardonavorlik timsoli hisoblangan kumush kamar va qurol to'ldirib turadi. Bolalar kiyimlariga esa sog'lik- salomatlik va baxt-iqbol timsolini ifodalovchi turli xil gul-kashta bezaklar tikilgan. Nafosat borasidagi fazilatlar to'g'risida so'zlaydigan bo'lsak, u zargarlarning yurak o'ri bilan yaratilgan mukammal asar bo'lib, u yoki bu davrda yashagan xalqlarning badiiy nafosat haqidagi tushunchalarni belgilab bergan. Demak, mazkur san'at orali, biz odamlarning ham moddiy olami, ham nafosat olami, ham ilohiy qudrat haqidagi tasavvurlarining bir-biri bilan uzviy ravishda chirmashib ketganini ko'ramiz. Xorazmda feruza, marjon, marvarid va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Chunki ular sog'liqqa, inson ruxiyatiga ijobiy ta'sir etgan. Hozirgi kunda Xorazmda 100 ga yaqin zargar xotin-qizlar, kelinchaklar uchun turli taqinchoqlar yasab, o'lmas san'at – zargarlikning rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Zeb-ziynat buyumlari- zargarlik san'atida yaratiladigan bezak

buyumlari, taqinchoqlar. Ayol libosini boyitib, ularni yanada nazokatli va jozibali qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. Asosan, oltin, kumush va boshqa madanlardan yasali, javohirlar qo'yib bezatiladi, Jim-jimador qilib rahkori, kumushni qoraytirib sovodkori, panjarali qilib shabaka va boshqa usullarda o'yma va bo'rtma naqshli qilib turlicha ishlanadi, shokilalar bilan bezatiladi. Taqilishiga ko'ra, bosh (tillaqosh, tillabargak, bodomoy, bibishak, gajak, qo'shduo va boshqalar.), bo'yin— ko'krak (turli marjon va marvaridlar, zebigardon, nozigardon, jevak, tanga-jevak, tavq, bo'yintumor, ko'kraktumor, qo'ltiqumor kabi tumorlar, bozuband va boshqalar.), soch (sochpopuk, tuf va boshqalar.), quloq- burun (buloqi, isirg'alar va boshqalar.) va qo'l (uzuk, bilaguzuklar) zeb-ziynat buyumlari xillari farqlanadi. Zeb-ziynat buyumlarining paydo bo'lishi tarixi juda qadimgi davrga borib taqaladi. Arxeologlar yuqori paleolit katlamlaridan topgan tosh munchoq, to'g'nog'ichlar, jez davriga oid bilaguzuk, to'g'nog'ich va tugmalar ilk ajdodlarning dastlabki bezaklari xaqida xabar beradi. Keyingi davrlarda yaratilgan tilla buyumlar bo'rtma tasvirlar, sopol xaykalchalar, o'rta asrlarga oid devoriy rasmlar, qo'lyozma asarlarga ishlangan miniatyuralarda aks etgan. Zeb-ziynat buyumlari vaqt o'tishi bilan asta sekin bir –birini to'ldirib, XIX asrning oxiri XX asr boshida yaxlit to'plamlarni vujudga keltirgan. O'zbekistonning turli viloyatlarida yasalgan zargarlik buyumlari o'ziga xos maxalliy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Xorazmlik zargarlar tayyorlagan zeb - ziynat buyumlari salmoqdorligi, serxashamligi va ko'rinishi bilan ajralib turadi. Samarqand zargarlari yaratgan taqinchoqlarda Toshkent xamda Buxoro zargarligining ta'siri seziladi. Masalan, panjara usulida nozik did bilan qulflik qilib ishlangan bilaguzuklar Buxoro zargarlarining ishlariga yaqin. Buxoro zargarlarining Qashqadaryo, Surxondaryo viloyati zargarlarining ishlariga xam ta'siri katta bo'lgan. Toshkentlik kelinlar to'yida (nikoh libosi bilan birga) boshga tillaqosh, tillabargak, gajak, quloqqa isirg'a, bo'yinga ko'krakka tushib turadigan zebigardon, jevak, xafaband, marjon, bo'yintumor, sochga sochpopuk, qo'ltiqqa qo'ltiqumor, qo'lga bilaguzuk va uzuklar taqqan. Samarqand kelinlarining zeb-ziynat

buyumlari (tillabargak, tillaqosh, gajak, isirg'a, sochpopuk, tavq, marjon, ko'kraktumor, zebigardon yoki haykal, bilaguzuk va uzuk) toshkentlik kelinlarnikiga yaqin bo'lgan. Xiva kelinlarining taqinchoqlari (taxyaduzi, osmaqanot, butuntirnoq, o'qyoy, shokila va boshqa.) o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, turli markazlarda yaratilgan zeb-ziynat buyumlari to'plamlari umumiylikka ega bo'lib, mahalliy o'ziga xoslik qismlarda namoyon bo'ladi. Bu to'plamlar bir namuna ko'rinishiga ega bo'lib, qat'iy bo'lmagan, u har bir xonadonning iqtisodiy ahvoriga qarab u yoki bu darajada boyitilgan. Ayollar zeb-ziynat buyumlarini to'la-to'kis holatda kelinlik davrining dastlabki 1-2 yil ichida, to'y-tantanalarda taqishga harakat qilgan, boshqa vaqtda engil harakat qilishga xalaqit bermaydiganlari (uzuk, bilaguzuk, isirg'a va boshqalar.) ni taqqan. Zirak, bilaguzuk, har xil munchoqlar (munchoq, qalampirmunchoq) ni qizchalarga juda kichikligidan boshlab taqa boshlashgan, chunki ular bezak bo'lish bilan birga yomon nazardan asrash vazifasini xam bajargan Markaziy Osiyo hududidan eng qadimgi zargarlik buyumlari Buxoro va Xorazmdan topilgan bo'lib, ular miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga mansub. Narshaxiyning " Buxoro tarixi" asarida zargarlar haqida nodir ma'lumotlar bor. Zargarlik san'ati Buxoroda Buxorxudodlar hukmdorligi davridan boshlab rivojlangan⁹⁹. O'rta asrlarda ancha rivojlangan zargarlik san'ati sovet davrida inqirozga yuz tutdi. Keyinchalik zargarlik fabrikalari tashki etilgan bo'lsada, bir xil qolib asosida mavjud an'analardan asta-sekinlik bilan yiroqlashadilar. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa hunarmandchilik turlari qatorida, Buxoroda zargarlik san'ati qayta jonlandi. Shu sabab Buxoro zargarlari bugungi kunda samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ustalar asosan ikki yo'nalishda: unitilib borayotgan qadimiy mahalliy zargarlik an'analarini qayta tiklash va zamonaviy uslubda zargarlik buyumlarini yaratish usulida ijod qilmoqdalar. Hozirda Buxoroda 1000 ga yaqin zargarlar faoliyat olib bormoqdalar. Ular Buxoroga xos zargarlik an'analarini o'rganish va yangi yo'nalishlarni kashf etish borasida

⁹⁹ Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent: Yangi nashr, 2011. – B. 73.

qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Buxoro maktabining qadimiy va yangicha chiziqlari bir-biriga uyg'unlashtirib, yangi zamonaviy zargarlik buyumlari yaratilmoqda¹⁰⁰. Xorazm zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Tuproqqal'a devorlaridagi tasvirlangan o'sha davrlardagi ayollar juda chiroyli nafis taqinchoqlar taqqanliklari ma'lum bo'lgan. Qoraqalpoq zargarlik san'ati o'ziga xos maktabga ega bo'lib, bezak buyumlarini yasash texnikasi bilan ham boshqa maktablardan farq qiladi. Qoraqalpoq zargarlik buyumlarini bezashda marjon va aqiq alohida ahamiyat kasb etib, buyumlarning nomlanishi umumiy bo'lsada ko'rinishi biroz vazminroq va keng hajmli qilib ishlanadi. Zargarlik san'ati ichida Samarqand zargarlik san'ati o'zining yasash texnikasi va nomlanishi bilan Buxoro va Toshkent zargarlik san'ati bilan uyg'unlashib ketadi. Bu narsani ayniqsa, tillaqosh, gajak, zebigardon, sochpo'pak, zulfi tillo, murg'ak, mohi tillo, bozbandli marjon va tumorlarda ko'rishimiz mumkin. Zargarlik buyumlari ichida erkaklar va ayollar bellariga taqadigan kamarlarda ham zargarlik san'ati namunalarini ko'rishimiz mumkin. O'ziga xos iqlim va sharoitga ega Surxondaryo zargarligi kumush munchoqlari, bozbandli marjonlari, jevablari va sochpo'paklari bilan ahamiyat kasb etadi. Zargarlik buyumlari ko'pqirrali buyumlar sirasiga kirib, bular ichida ayollar ko'ylagiga taqiladigan peshkurta ya'ni ko'ylak oldiga taqiladigan bezak buyumlarida ham zargarlik namunalarini ko'rishimiz mumkin. Peshkurtalar xar xil shokilalar, tangalar, tugmalar, mayda toshlar va marjon shodalari bilan bezatilgan bo'lishi mumkin. Ingichka simdan to'qilgan, pastki qismiga g'oyatda nafis to'qima gul qo'ndirilgan, katta gardish ko'rinishdagi sirg'alar keng rasm bo'lgan. Asl marjon, dur, la'l, zumrad, sadaf, nafis tilla va kumush munchoqlar, qubbachalar, zanjirlar, bosma gulli tangachalar, rangli tosh shodalari, ming xilda tovlanib turuvchi uzun shokila sirg'aning gardishi qirg'og'i bo'ylab qadab chiqilgan. Boshqa sirg'alarda esa, nafis gulning o'rniga simlardan ulagich yasilib, huddi shokilalardek munchoqlar qadalgan. Toshkent sirg'alarining yasashida esa birmuncha farq mavjudligini ko'ramiz.

¹⁰⁰ Жабборов И.М. Ўзбеклар турмуш тарзи ва маданияти. – Ташкент: Ўқитувчи, 2003. Б. 125.

Peshona taqinchoqlari uch guruhga bo'linib, birinchi guruhiga tillaqosh, ikkinchi guruhiga bargak, silsila, uchinchi guruhiga esa, moxitilla, zulfitilla, va xabatak kirgan. Bundan tashqari, O'zbekiston xududida tillaqoshning uch xil buxorocho, xivacha va toshkentcha turlari ma'lum. Samarqandda tillaqosh "qoshitillo", "tillaqosh", Buxoroda "boloabru", Farg'ona vodiysida "tillaqosh", Nurotada, "tillabarg", "taxtachabarg", Qashqadaryo vohasida esa "tillaqosh" deb yuritiladi. Tillaqosh so'zi qosh so'zidan emas balki, patlari yoyilgan qush ko'rinishida tillaqosh yasalganligi yozma manbaalarda ta'kidlanadi. O'sha gajaklar tillaqoshning ajralmas qismi bo'lib, hisoblanadi. Gajaklar ham, tillaqosh ham uchlari burma gajakli o'rdak patlari bilan bezalgan bo'lib, har ikkala qismiga ham bir xilda bezak berilgan. Bodom nusxali Toshkent gajaklari asosida qush shakli aks etadi. Buxoroda yasalgan gajaklarda esa geometrik shakldan uchburchak shakl bilan bezatilgan to'g'ri burchakli tumorlardan tashkil topgan keng rasm bo'lgan. Uzuklar ma'dandan qilinib, turli shakldagi qalqonchalarga rangli tosh va shishadan ko'z qadalgan. Xorazmda chozinchoq, kamdan-kam hollarda tog'ri burchakli haqiq yoki shisha ko'zli uzuklar yasash azaldan Burunga taqiladigan sirg'aning ko'plab mahalliy nomlari mavjud, shularning eng keng tarqalgani arabakdir. Bu sirg'a burun katagini teshib taqiladi. Arabakni taqishni kishilar o'zlariga sharaf deb bilganlar. Munchoqlar shishma, yassi va g'oyat nozik tilla donachalari, marjon, rangli toshlardan qilingan xalqachalardan iborat bo'lib, bular ichida to'rtburchak shakldagi yashil shisha munchoq alohida muqaddas kuchga ega deb hisoblanadi. Uzukning qadimiy shakllari asrlar osha yashab kelgan. Uzuklarning ma'no jihatidan xilma-xillik xususiyatlari uzoq saqlanib qolgan. Ko'zli yoki ko'zsiz uzuk taqish har bir ayol uchun farz hisoblangan. Busiz uning qo'li nopok xisoblangan. Uzuklar ma'dandan qilinib, turli shakldagi qalqonchalarga rangli tosh va shishadan ko'z qadalgan. Xorazmda cho'zinchoq, kamdan-kam hollarda to'g'ri burchakli haqiq yoki shisha ko'zli uzuklar yasash azaldan keng rasm bo'lgan. Ayollarning yana bir zargarlik bezagi bu turli ko'rinishdagi tumorlardir. Tumor arabcha so'z bo'lib, ins-jinslarni xaydash uchun qog'ozga yozilgan duoga aytilgan. Tumorlar turli xil bo'lgan:

bo'yin tumor, qo'ltiq tumor, ko'krak tumor va hokozolar. Bundan tashqari bosh kiyimga, bo'yinga, yelkaga taqiladigan tumorlar bo'lgan. Tumorlarning ko'rinishi xam turli xil: To'g'ri to'rtburchak, uchburchak va stilndirsimon (astvona) ko'rinishda bo'lgan. Tumorlarga qora yo'l, bosma, va kesma usullarda ismiy va xandasaviy naqshlar, arabcha yozuvlar, rangli shishalar, munchoq shodalari bilan bezak berilgan. XX asr ning 20 yillarida zargar ustalar artellarga birlashdi, an'anaviy serxasham va og'ir zeb-ziynat buyumlari o'rniga xalq didiga mos bo'lgan yengil, qulay va nafis isirg'alar (qashqarboldoq, «isirg'abarg», buxori zirak— «shibirma», «ayzirak», ilon zirak va boshqalar.), yoqut ko'zli uzuklar, bilaguzuklar yasala boshlandi, xom ashyo sifatida mis, kumush va tilla bezaklardan, qisman davlat ajratgan tilladan foydalanildi. 1963 yilda Toshkent zargarlik fabrikasi (1972 yildan zavod) ishga tushdi, u erda tilla zanjirlar, yoqut, feruza, gavxar va boshqa qimmatbaho toshlardan ko'zlar qo'yib ishlangan zirak va uzuklar, bilaguzuklar, nikoh uzuklarini ko'plab ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Nozik did va maxorat bilan ishlangan bu qulay va nafis taqinchoqlarni ayollar doimo taqib yurish imkoniyatiga egadir. Zargarlar yangi zeb-ziynat buyumlari (jumladan, qashqarboldoq, buxoro isirg'asi «shibirma», to'g'nog'ich, bilaguzuk, marjon va boshqalar.) bilan bir qatorda an'anaviy taqinchoqlarni (masalan, isirg'a, uzuk, bilaguzuk, marjonlardan iborat «Bozuband», «Oynazirak» va boshqa to'plamlari, 90 yillar) yangicha o'ziga xos bezaklar bilan yaratmoqda.

Xulosa

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etgan. Birinchi Prezidentimiz Karimov.I.A.ta'kidlashicha, davlatchilik hozirgi davrda muhim siyosiy masalaga aylandi. Biz mamlakatimiz Prezidentining oldimizga qo'ygan ushbu tarixiy haqiqatni,o'tmishda ro'y bergan tarixiy voqealarni, hodisalarni tarixiy shaxslar faoliyatini yoritib berish orqaligina kishilar ongiga yetkazishimiz mumkin.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», - degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi.

O'zbek davlatchiligi bir necha asrlik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunda tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Mamlakatimizning ko'plab qo'lyozma xazinalarida boy yozma madaniyat yodgorliklari mavjud. Ularda O'rta Osiyo hududida shakllangan davlatchilik va uning turli qirralari, davlat tuzilishi, aholining turli ijtimoiy qatlamlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida boy ma'lumotlar bor. Xususan, Xiva xonlari jamg'armasi va O'zRFA sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan XIX asr Xiva xonligiga oid hujjatlar katta ahamiyatga ega. Bu manbaalar juda qimmatli bo'lib o'tmishimizga tegishli turli tarixiy voqealar haqida boy ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Albatta, tadqiqot mavzuini yoritishda o'sha davr saroy tarixchilarini asarlarining ham alohida o'rni bor. Jumladan, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlari va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan qo'lyozmalarda mavzuga oid juda ko'p qimmatli ma'lumotlar keltirishgan. Ular o'z asarlarida Xiva xonligining XVIII asr ikkinchi yarmidan to XX asr boshlarigacha bo'lgan siyosiy tarixni xronologik tartibda mufassal ravishda bayon etadilar. Xiva davlatchiligi tarixiga oid er, suv, toj-taxt, hokimiyat uchun xonlar va katta amaldorlar o'rtasida davom etgan qonli kurashlar, uning hunarmandchilik

sohalari ,Xiva xonlarining qo'shni turkman va qoraqalpoq xalqlariga nisbatan tutgan siyosati va qo'shni davlatlarga qilgan xarbiy yurishlari, shuningdek, boshqa davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar bu mualliflar tomonidan keng yoritilgan. XIX asrda Xiva xonligida qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda sug'orish inshootlarini kurash borasida juda ulkan ishlar amalga oshirilgan. Bu davrda o'n minglab gektar er maydonlariga suv chiqarilib, yangi erlar o'zlashtirildi Bundan tashqari aholining kundalik mashg'ulotlari , hunarmandchilik sohalari va uning turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bularning barchasi xonlik iqtisodiyotining yuksalishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu davr xonlik iqtisodiy hayotining asosiy hususiyatlaridan biri tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishidir. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi xonlik soliq tizimining o'zgarishida o'z ifodasini topdi. XIX asrning birinchi yarmida soliq natural holda emas, pul bilan yig'a boshladilar. Pul solig'ining roli nisbatan kuchaydi. Albatta bu soliqlar dehqon, hunarmand, kosib va mahalliy aholi vakillaridan yig'ilgan. Bu davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari asosan erga egalik qilish bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, savdo munosabatlari iqtisodiyotga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Bu munosabatlar qabilalar o'rtasidagi unchalik rivojlanmagan iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi, ularning biri-biri bilan birlashishiga sabab bo'ldi va xonlarning markaziy davlat tuzishdagi ishlarini solishtirdi. Xiva xonligining hunarmandchilik sohasi zargarlik san'ati ham bu davrga kelib rivojlana boshladi. Xiva xonligining hunarmandchiligining sohasi zargarlik haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan, har biri bir qancha tarixiy tadqiqotlarga manbaa bo'la oladigan solnomalar madaniy merosimiz xazinalarida o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Xiva xonligining zargarlik san'ati tarixini chuqurroq o'rganish tarixchi va huquqshunos olimlar oldida turgan muhim va aslo kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir. Chunki, zargarlik san'ati bugungi kunda rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, o'ta ahamiyatli. XVI asr boshlaridan Xorazmda siyosiy jarayonlar keskinlasha boshladi bu esa o'z navbatida hunarmandchilik sohasiga ham ta'sir etmay qolmadi.. Ma'lumki, Xorazm vohasi tarixiy voqealarga serob bo'lgan mintaqalardan biri. Xorazmning XVI asrning

boshlaridan XVIII asrlarda murakkab siyosiy voqealar va etnik jarayonlar bilan izohlanadi. Xorazm zargarlik san'ati va u bilan bog'liq jarayonlar ota-bobo hamda momolarimizdan qolib kelayotgan hunarlarimizdan biri xisoblanadi. Qadimiy zargarlik namunalarini bugungi kunda ishlab chiqarish texnikasi va taxnologiyasi va badiiy sifatlarini o'rganish, zargarlik an'alarini davom ettirish va davlat, sanoat rivojida munosib hissa qo'shish masalasi ko'rib chiqildi. Shu sababli tanlangan mavzu nafaqat tarix yoki uning tarmog'i bo'lgan etnologiya fani uchun, balki davlatimiz iqtisodiyoti, xalqimizning zargarlik buyumlariga bo'lgan talab va ehtiyojni va eng asosiysi milliy qadriyat va an'alarimizning yaqqol namunasi sifatida ham dolzarb va muhim masaladir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Xorazmning Xiva zargarlik san'ati tarixi juda uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo zargarligida Xorazm zargarlik san'ati tarixi o'z o'rniga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz tamonidan tadbirkorlik qilaman degan kishiga har tamonlama ko'mak berib kelinmoqda. Buning o'zi ham Xorazm zargarlik san'ati nafaqat o'tmishda balki, bugungi kunda ham ildam qadamlar bilan tez suratlarda taraqqiy qilyotganligini guvohi bo'lamiz. Xorazm zargarlik san'ati kelajakda ham o'z xoridorligini yo'qotmaydi deb baho berish mumkin.

O'z Vatani tarixini biladigan, hurmat qiladigan kishigina uning chinakam fuqarosi bo'la oladi. Ayniqsa, bu borada hukumatimiz, hususan yurtboshimiz olib borayotgan siyosat tahsinga sazovordir. Ilm-ma'rifatga, ma'naviyatlar va milliy qadriyatlarga alohida e'tibor bilan qaralishi ana shunday ibratli ishlar jumlasidandir. Zero, o'tmishni o'rganmasdan turib, kelajakni qurib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Pzezident asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanalari marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivolantirishning asosiy yakunlari va 2017 – yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar //Mirziyoyev Sh.M. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarqqiyoti va xalq faravonligining garovi. //O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr / / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramaiz.// Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. // Mirziyoyev Sh.M.. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin . Toshkent: O'zbekiston,1996, 329-bet.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.Toshkent: "Ma'naviyat" ,1998.
3. Karimov I. Adolatli jamiyat sari.Toshkent: Sharq,1998.
4. KarimovI.Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston,2008.
5. Karimov I. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 340-343-betlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2- tom. Toshkent:Taraqqiyot. 1987-2001 .
2. Azimov I. Arxitektura Uzbekistana XVIII- nachalo XX vv. tomax. Toshkent., 1994-1996.
3. Abdullayev M.Bobojonov.D. Xorazm amaliy san'at ustalari. Xiva:Xorazm ma'mun akademiyasi.2010.
4. Abu Rayxon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: "Fan". 1968.
5. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar). — Toshkent: O'zbekiston, 1996. Gutsunaev N. Xiva. — Toshkent: O'zbekiston.1981.
6. Ahmedov B. A. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi.1994.
7. Avesto. San'at. 1991, №5-12,1992 № 1.
8. «Avesto» kitobi tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent., 2000.
9. Abdurasulov A. Xiva.-Toshkent: Sharq.1997.

10. Axundjanov E.A. K istorii razvitiya knijnego dela v Xive // Obshchestvennie nauki v Uzbekistane, 1997, № 7-8. — S. 100–103. .
11. Bulatov. S.O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent: O'zbekiston.1991 .
12. Bulatov.S.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent.,1991 yil.
13. Buniyodov Z. Anushtagin -Xorazmshohlar davlati. Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
14. Bayoniy M.YU. Shajarayi Xorazmshohiy —Meros to'plamida, 246–bet.
15. Bobojonov D., Abdurasulov M. Firdavsmonand shahar. Xiva: Xorazm ma'mun akademiyasi,2008.
16. Gilmersen G. Xiva v nineshnem svoem sostoyanii. Vir. «Otechestvennie zapiski». 1840. s. 105. Lobachevskiy V. Xivinskiy rayon. — T., 1912. — 74–bet.
17. Haqqulov A. Ta'mir san'ati. Toshkent: Mehnat. 1991
18. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. Toshkent: TDSHI, 2000.
19. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinası. — Toshkent: Sharq ,1999.
20. Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent: O'qituvchi. 1998
21. Jabborov I.M. O'zbeklar turmush tarzi va madaniyati. Toshkent: O'qituvchi,2003.
22. Jabborov I.M. Antik davr madaniyati va xazinası. – Toshkent: O'qituvchi, 2006
23. Komiljon Hudoyberganov “ Xiva — dunyodagi eng ko'hna qal'a”. Toshkent :Xorazm Ma'mun Akademiyasi , 2012 yil
24. Kabirov A., Sagdullaev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent: Meros, 1990.
25. Maxmudov. T. «Avesto» haqida. Toshkent: SHarq , 2000.
26. Matniyazov .M.Xorazm tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). Urganch.UrDU nashryoti, 2004.

28. Matniyazov. M.Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni va roli. Urganch:UrDU nashriyoti,2000
29. Matniyazov. M.Xorazmda tarix navslik ilmining vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari.Urganch:UrDU nashriyoti, 2007.
30. Matniyazov.M.Ya.Ollomov.Xorazm davlatchiligi tarixi.Urganch:UrDU nashriyoti, 2008.
31. Matniyozov M. Sotliqov A. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urganch: Xorazm,1999.
32. Matniyozov M. Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik
33. ijtimoiy–siyosiy hayotida tutgan o'rni va roli. Xiva: Xorazm ma'mun akademiyasi,2012. 62–68–bet.
34. Matrasulov SH. Pervaya tipografiya v Xorezme “ “Xorezmskaya pravda, 1994, 22 sent.
35. Masharipov. O.Xorazmnoma. 1,2 kitoblar. Urganch:O'qituvchi, 2007.
36. Murtazayeva. R.H. O'zbekiston tarixi. -Toshkent: 2003 yil metodikasi. Toshkent ,2003.
37. Materialnoye kultura narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M., 1966 Urganch, Xorazm nashriyoti, 1999 y
38. Narodnoye dekarativnoye isskustvo savetskogo Uzbekistana. – T., 1955
39. Oripov B.N. O'zbekiston san'ati va me'morchiligi tarixi.Namangan: Meros,1999.
40. Prista. M.Toshkent ganchkorligi .Toshkent:Badiiy adabiyotlar nashriyoti,1960 .
41. Qayumov A., Is'hoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklari. – Toshkent: Yozuvchi, 2000.
42. Sagdullayev A. O'rta Osiyo xaqdari tarixining tarixnavisligidan lavhalar. - Toshkent:" O'zbekiston .1993.
43. Saurova G. Novoye i staroye v kovrodeli. – Ashxabad. 1963
44. Tolstov S.P.Trudi uzbekskoy ekspedisi. Toshkent:II. – M., 1958
45. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M., 1948

46. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. — Toshkent: Sharq, 1964.
47. Abdullaev. T. XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent: "Xiva – ming gumbaz shahri", 1997.
48. Xasanov. R. Amaliy bezak san'ati . Toshkent: Sharq, 1997.
49. Xudayberganov K. Xiva xonlari tarixidan. Urganch: Xorazm, 2008.
50. .Xorazm tarixi .1,2, kitoblar prof. M. Matniyazov taxriri ostida. Urganch, 1997.
51. Zohidov P. Sh. Me'mor Man'kovskaya L. Yu. Bulatova V. A. Pamyatniki zodchestva Xorezma. — Toshkent: G'afur Gulyam, 1978.
52. O'zbekiston xalqlari tarixi. II jild. o'quv qo'llanma. Toshkent: Fan. 1993.
53. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Toshkent: Sharq, 2001.
54. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 13-jildlik. Toshkent: O'zME, 2000-2006.
55. G'ulomov Ya. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent: "Sharq", 1959.
56. Yunusxo'jayev. T. T. "Zargarlik sirlari" . O'quv qo'llanma. Toshkent. Sharq, 2005.

Jurnallar:

1. O'zbekiston arxitekturasini va qurilishi
2. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar
3. Moziydan sado
4. San'at

Internet materiallari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.arxeologiya.uz>
3. <http://www.touruz.narod.ru/khiva>
4. <http://www.yandex.ru/islam.> .
5. [www.natcom.unesco.uz.](http://www.natcom.unesco.uz)

6. www.history.ru
7. www.magister.msk.ru/library/history/history1
8. http://www.sambuh.ru/uzbekistan/history_of_uzbekistan.'h'
9. <http://www.orexca.com/rus/uzbekistan.shtml>
10. <http://www.guldu.uz/uzhistru.html>
11. <http://eu.s'b.ru/history/index.htm>
12. www.museum.ru